Tog‘ jinsini parchalovchi asboblarning kesuvchi elementlarining orqa qirraga o‘tirishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kichik radiusli kesish liniyalarida (quduq o‘qida) burchakni kamaytirish zarur aylanish chastotasini oshirish hisobiga trayektoriya qiyaligini oshirish, katta radiusli chekka kesish liniyalarida esa kichik aylanish chastotasida ham orqa qirraga qo‘nishga yo‘l qo‘ymaslik va i qiymatlarini o‘zgartirib, kesuvchi elementning orqa burchagining o‘zgarmas qiymatlarida iskananing tez aylanuvchi ichki qismi va sekin aylanuvchi tashqi qismining burg‘ilash tezliklarini muvofiqlashtirish mumkin, bunda uning har bir tarkibiy qismi uchun tezliklarning tengligi ta’minlanadi:

$$V_{MN} = \delta_n * n_n = \delta_c * n_c$$

bu yerda δ_n - pioner yarusining yemirilganlik darajasi, mm/ayl; n_n - aylanish chastotasi; pioner yarusi, ayl/min; δ_c - quduq hosil qiluvchining yemirilganlik darajasi, mm/ayl; n_c — quduq hosil qiluvchi yarusning aylanish chastotasi, ayl/min.



1-rasm. Dolota D-2VV Ishchi qismi


Dolota ishchi qism tasvirlangan jins parchalovchi asbob Uning qulfga ega bo‘lgan 1-korpusiga rezba 6 ga 2 va 3-yaruslar d diametrli va D mos ravishda, mustaqil aylanish jismlari ko‘rinishida bajarilgan va o‘q bo‘ylab joylashgan. Yaruslarning kesuvchi elementlari ATP 4 va 5 bilan jihozlangan. 2-yarusda shlamni olib chiqishni ta’minlash uchun beshta yuvish kanali 7 ko‘zda tutilgan.

Yaruslar burchak tezliklari ω_n va ω_c bilan aylanganda, mos ravishda butun jins parchalovchi asbob o‘q bo‘ylab siljiganda, kesuvchi elementlar quduq oldinga siljigan sari kengayib boradigan zaboy R holati bilan aniqlanadigan D diametrgacha 3 - Ishchi qism D-2VV14 iskanasida joylashgan chetki kesuvchi elementlar 5 yarus elementlarining pastki qismlarida 3. Oldingi qirralar bir nechta pioner yarusining kesuvchi elementlari 4 va aylanish o‘qidan turli masofalarda joylashgan quduq hosil qiluvchi yarusning bir nechta kesuvchi elementlari 5,

ISSN 3030-3907

ularning kesish tezligi o‘qdan uzoqlashgan sari ortib, tog‘ jinslarining mustahkamligi va asbobning yeyilishga chidamliligiga bog‘liq bo‘lgan kritik qiymatlariga yaqinlashadi.

Kesuvchi elementlar diametri 013,5 mm bo‘lgan ATKdan iborat.



2-rasm. Burg‘ilash uskunasisining burg‘i usti qismi va D-2VV burg‘isini joylashtirish.

Takomillashtirilgan tog‘ jinsini parchalovchi asboblarning eksperimental tadqiqotlari

Skvajina tubida shlamli rejimni hosil bo‘lishini kamaytirish va burg‘ilashning mexanik tezligini oshirish, kesish samaradorligini oshirish maqsadida konstruktsiyasi takomillashtirilgan tog‘ jinsini parchalovchi asboblarning samaradorligini aniqlash uchun sanoat tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Dala sharoitida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadini tog‘ jinsini parchalovchi asboblarning chidamliligini va burg‘ilashning mexanik tezligiga ta’sirini aniqlash, hamda takomillashtirilgan uchliklarning yuqori ekspluatatsiya ko‘rsatkichlarini ta’minlovchi ratsional ish rejimlarini aniqlash tashkil etdi.


Dala sharoitida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tartibda bajarildi, oddiy va takomillashtirilgan uchliklar bir turdagi geologik sharoitlarda, burg‘ilashning turli xil rejimlarida dolotaning to‘liq ishdan chiqquniga qadar ekspluatatsiya qilindi. Eksperimental burg‘ilash ishlari qattiqligi f=7÷8 toifaga teng bo‘lgan tog‘ jinslarida, texnik suv va gil asosida tayyorlangan (PPB markali gil poroshogi (8%), kalьtsiyli soda (0,5%), texnik suv (91,5%) burg‘ilash suyuqligini qo‘llagan holatda amalga oshirildi. Har bir burg‘ilash rejimi uchun tajriba-sinovlari 3 martadan takrorlandi.

Tajriba-sinov ishlari uchlikga beriladigan o‘qiy bosim kuchi (R_{os}) 7,5 kN, 10 kN, 12,5 kN va 15 kN kattaliklari, va xuddi shunday uchlikning aylanishlar soni (n) xar bir o‘qiy bosim kuchi kattaligi uchun 80, 100, 120 va 140 min^{-1} kattaliklarida bajarildi.

ISSN 3030-3907


Bajarilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashtirilgan o‘rtacha natijalari I. 1-jadvalda keltirilgan. [2, 3]

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari uchlik dolotaning skvajina o‘tish qobiliyatini hamda burg‘ilashdagi mexanik tezligini burg‘ilash rejimining ko‘rsatkichlariga va dolotaning konstruktiv tuzilishiga, ya’ni uchlik dolotaning panja qismining va kurakchalarini spiral chiziq bo‘ylab uyurmali egilganlik burchagiga bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.



3-rasm. Oddiy dolotaning burg‘ilash mexanik tezligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

Oddiy dolota bilan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirganda o‘qiy bosim kuchi 7,5 kN ni, dolotaning aylanishlar soni 80 min^{-1} ni tashkil etganda burg‘ilashning mexanik tezligi (V_m) 3,1 m/soat ni tashkil etdi. O‘qiy bosim kuchini va aylanishlar sonini oshirish bilan birga burg‘ilashning mexanik tezligini oshib borishi kuzatildi, bunda o‘qiy bosim kuchi maksimal 15 kN, aylanishlar soni 140 min^{-1} ni tashkil etganda burg‘ilashning mexanik tezligi (V_m) 11,6 m/soatga yetdi (4-rasm).




4-rasm.Takomillashtirilgan dolotaning burg‘ilash mexanik tezligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

ISSN 3030-3907

Jins parchalovchi uchlikning takomillashtirilgan konstruktsiyasini qo‘llaganda esa o‘qiy bosim kuchi 7,5 kN ni, uchlikning aylanishlar soni 80 min^{-1} ni tashkil etganda burg‘ilashning mexanik tezligi (V_m) 3,3 m/soat ni tashkil etdi. O‘qiy bosim kuchini 15 kN va aylanishlar sonini 140 min^{-1} kattaligida ta’minlanganda esa burg‘ilashning mexanik tezligi (V_m) 12,8 m/soatni tashkil etdi. Bunda takomillashtirilgan dolotani qo‘llash burg‘ilashning mexanik tezligini o‘rtacha 6 % gacha oshirishi kuzatildi (5-rasmga qarang). Burg‘ilash rejimining qolgan ko‘rsatkichlarida ham burg‘ilashning mexanik tezligining (V_m) huddi shunday o‘sishi kuzatildi. [3, 4]


Tajriba-sinov ishlari davomida oddiy va takomillashtirilgan jins parchalovchi uchlik dolotalarning chidamliligini burg‘ilash rejimlariga bog‘liqligi tadqiq qilindi. Quyidagi 4- va 5-rasmlarda oddiy va takomillashtirilgan jins parchalovchi uchlik dolotalarning chidamliligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.



5-rasm. Oddiy dolotaning chidamliligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

Skvajinani oddiy dolota bilan burg‘ilash davomida burg‘ilash rejimining quyidagi kattaliklarida $P_{o‘q}$=7,5 kN, n=80 min^{-1}, G=6,8 l/s, dolotaning chidamliligi (o‘tish resursi) 132 metrni tashkil etdi. Aylanishlar sonini har 20 min^{-1} ga oshirganda dolotaning chidamliligi 3-4 metrga kamayib bordi. O‘qiy bosim kuchini 10 kN ga oshirganda dolotaning chidamliligi 128 metrni, o‘qiy bosim kuchini 12,5 kN va 15 kN ga oshirganda esa 108 va 91 metrni tashkil etdi (4-rasm). O‘qiy bosim kuchining huddi shunday kattaliklarida dolotaning aylanishlar sonini oshirish dolotaning chidamliligini kamayishiga olib keldi. Burg‘ilash rejimi ko‘rsatkichlarining oshib borishi natijasida dolotaning chidamliligi (o‘tish resursi) kamayib borishi kuzatildi.


ISSN 3030-3907



6-rasm. Takomillashtirilgan dolotaning chidamliligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

Takomillashtirilgan dolotani qo‘llaganda esa (10-rasm) burg‘ilash rejimining $P_{o‘q}$=7,5 kN, n=80 min^{-1}, G=6,8 l/s kattaliklarida dolotaning chidamliligi 135 metrni, aylanishlar sonini 100min^{-1} ga oshirganda 130 metrni tashkil etdi. Dolotaning aylanishlar sonining 80 va 100min^{-1}ko‘rsatkichlarida oddiy dolotani qo‘llaganga nisbatan takomillashtirilgan dolotada deyarli chidamlilik oshmadi. Dolotaning aylanishlar sonining 120 va 140 min^{-1}ga yetkazilganda chidamlilik o‘rtacha 8-10 metrgacha oshgani aniqlandi. Bundan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki takomillashtirilgan dolotaning samaradorligiga dolotaning aylanishlar soni 120 min^{-1} dan oshganda erishiladi.

Oddiy va takomillashtirilgan dolotalarning chidamliligini dolotaning aylanishlar sonining (n) 120 va 140 min^{-1} kattaliklarida qiyosiy grafiklari 5- va 6-rasmlarda keltirilgan. [5,6]




a-oddiy dolota; b-takomillashtirilgan dolota

7-rasm. Oddiy va takomillashtirilgan dolotaning aylanishlar soni (*n* = 120)bo‘lganda chidamliligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

ISSN 3030-3907

Dolotaga beriladigan o‘qiy bosim kuchining 7,5 kN kattaligida aylanishlar soni 120 min^{-1} bo‘lganda (6-rasm), oddiy dolotaning chidamliligi 123 metrni, takomillashtirilgan dolotaning chidamliligi esa 133 metrni tashkil etdi. O‘qiy bosim kuchini oshib borishi natijasida har ikkala dolotada ham chidamlilik kamayib bordi, biroq takomillashtirilgan dolotaning chidamliligi o‘rtacha 7-8 % ga yuqoriligi saqlanib qoldi.



a-oddiy dolota; b-takomillashtirilgan dolota

8-rasm. Oddiy va takomillashtirilgan dolotaning aylanishlar soni (*n* = 140) bo‘lganda chidamliligini o‘qiy bosim kuchi va aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi

Dolotaning aylanishlar soni (n) 140 min^{-1} ga yetkazilganda (6-rasm), o‘qiy bosim kuchining (R_{os}) 7,5 kN kattaligida oddiy dolotaning chidamliligi 116 metrni, takomillashtirilgan dolotaning chidamliligi esa 130 metrni tashkil etdi, bunda dolotaning chidamliligi 14 metrga oshdi. O‘qiy bosim kuchining boshqa ko‘rsatkichlarida ham huddi shunday o‘sish kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan tajriba-sinov ishlarini natijalarini tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash mumkinki, takomillashtirilgan uch sharoshkali dolota skvajina zaboyida shlamli rejim hosil bo‘lishini kamaytirish asosida burg‘ilashning mexanik tezligini (V_m) va dolotaning chidamliligini oshiradi. SHuningdek, o‘tkazilgan tajriba-sinovlari natijasida shu aniqlandiki, taklif etilayotgan dolotaning yuqori samaradorliligi uning aylanishlar soni (n) 120-140 min^{-1}, o‘qiy bosim kuchi 10-12,5 kN kattaliklarida ta’minlanadi.

XULOSA.

Tadqiqot natijasida tog‘ jinsini parchalovchi uchlik konstruksiyasini takomillashtirish burg‘ilash jarayonining texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashi aniqlandi. Taklif etilgan konstruksiya asosida burg‘ilash tezligini

ISSN 3030-3907

oshirildi, energiya sarfini kamaytirildi, jins parchalovchi uchlikning xizmat muddat uzaytirildi, ekspluatatsion xarajatlar kamaytirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mustafayev O.B., Djurayev R.U., Urunova X.Sh., Normayev Q.X. Burg‘ilash snaryadining yangi konstruktsiyasini ishlab chiqish asosida jins parchalovchi asboblarning samaradorligini oshirish // Innovatsion texnologiyalar. – Qarshi, 2021. – № 3. – 12-16 б.
2. Мустафаев О.Б., Джураев Р.У., Хатамова Д.Н., Нормаев К.Х. Исследование факторов и влияния температурного режима на эффективность работы породоразрушающего инструмента // Инновационные технологии. – Карши, 2022. – № 1. – 12-16 б.
3. Djurayev R.U., Mustafayev O.B. Skvajinalarni havo yordamida burg‘ilashning energiya samaradorligini oshirish // O`zbekiston konchilik xabarnomasi. – Navoiy, 2017. – №2. – S. 45-47.
4. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Adixakimova M. A. Improving of the efficiency of cleaning of the bottom of the borehole from the crushed slurry on the basis of improving of the construction of a three-ballchisel // The american journal of engineering and technology. – USA, 2022. – pp. 79-91.
5. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Adixakimova M. A. Increasing the efficiency of gender crushing equipment on the basis of eliminating the production of slimming regime at the bottom of the well // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – Indonesia, 2022. – Vol. 3. – Issue 5. – pp. 270-275.
6. Mustafayev O.B., Djuraev R.U., Khatamova D.N., Khamzaev A.A. Mathematical Modeling of Thermal Conditions of Drilling Bits in Air Drilling // IJARSET. – India, 2022. – № 3 – pp. 19046-19052.

ISSN 3030-3907

БИОСТИМУЛЯТОР- ЖШД-4 НИНГ ОЛИНИШИ ВА ТАЪСИР ДАРАЖАСИ

Джураева Шохиста Дилмурадовна
Қарши давлат техника университети "Табиий фанлар" кафедраси доценти

Аннотация. Импорт ўрнини босувчи экологик хавфсиз бўлган, юқори натижага эга ўсимликлар биостимулятори синтез қилинди ва илгари мавжуд бўлмаган янги технология ишлаб чиқилди. Чунки ер юзида аҳоли сонини ошиб бориши инсониятни озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини кучаймокда, шунинг учун ўсимликларни кимёвий ашёлар ёрдамида заракунандалардан ҳимоя қилиш ва уларни ўсиши ва ривожланишини таъминловчи биостимуляторларни қўллаш муҳим аҳамиятга эгадир.

Калит сўзлар: диазобоғланиш, биостимулятор, диазотирлаш, оксигруппа, дифолянт, электронодонор гуруҳ, азогурух, электроноакцептор гуруҳ, хлоанилин, аминобензой кислота.

Abstract. An environmentally safe, highly effective plant biostimulant capable of replacing imported ones has been synthesized, and a new, previously unexisting technology has been developed. Due to the growing global population and increasing demand for food, it is important to protect plants from pests using chemicals and use biostimulants to ensure their growth and development.

Keywords: diazotization, biostimulant, diazotization, oxy group, difolian, electron-donating group, azo group, electron-withdrawing group, chloroaniline, aminobenzoic acid.

Аннотация. Синтезирован экологически безопасный, высокоэффективный биостимулятор для растений, способный заменить импорт, и разработана новая, ранее не существовавшая технология. В связи с ростом населения мира и увеличением потребности в продуктах питания, важно защищать растения от вредителей с помощью химических средств и использовать биостимуляторы, обеспечивающие их рост и развитие.

Ключевые слова: диазотирование, биостимулятор, диазотирование, оксигруппа, дифолиан, электронодонорная группа, азогруппа, электроноакцепторная группа, хлоранилин, аминобензойная кислота.

КИРИШ.

Ҳозирги кунда ўсимликларни кимёвий ашёлар ёрдамида заракунандалардан ҳимоя қилиш ва уларни ўсиши ва ривожланишини таъминловчи биостимуляторларни қўллаш муҳим аҳамиятга эгадир [1]. Чунки ер юзида аҳоли сонини ошиб бориши инсониятни озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини кучайишига сабаб бўлмокда. Бу масаланинг ечими узвий равишта қишлоқ ҳўжалиги билан чамбарчас

ISSN 3030-3907

боғликдир. Биостимуляторлар орасида зарарсиз ва кам заҳарли, маҳаллий ҳом ашёлардан олинган, чиқиндисиз юқори эффектга эга бўлган экологик тоза маҳсулотлар синтез қилиб олиш ва уларни қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларига тадбиқ этиш давр талабидир.

ИШНИНГ АФЗАЛЛИГИ. Импорт ўрнини босувчи экологик хавфсиз бўлган, юқори натижага эга ўсимликлар биостимулятори синтез қилинди ва илгари мавжуд бўлмаган янги технология ишлаб чиқилди.


ИШДАН МАҚСАД. Юқори эффектга эга маҳсулот 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 (ЖШД-4)ни олиш технологиясини ишлаб чиқиш ва уни қишлоқ ҳўжалигида қўлланиш кўламини кенгаштиришдан иборатдир.

Ҳозирги кунда ўзида электронодонор гуруҳи сақлаган азофенол ҳосилаларини яратиш ва синтез қилиш ҳамда уларни ишлаб чиқариш технологияларини жорий қилиш замонавий органик кимёнинг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.


Маълумки, нитроанилиннинг, хлоанилининг ва аминобензой кислоталарда диазобоғланиш мустаҳкамроқ бўлиб, уларни юқорироқ ҳароратда (20^0гача) нейтрал ва кучсиз ишқорий муҳитда диазотирланади [2].

Шу мақсадда ушбу моддаларни синтез килишнинг технологик жараёни ишлаб чиқилган бўлиб, кимёвий синтез реакциялари даврий равишта амалга оширилади.

Тажрибавий қисм. Дастлаб нейтрал муҳитда 2-хлор анилинни диазотирлаймиз, сўнгра 2-хлорфенилдиазохлоридга диазотловчи аралашма ($HCl+NaNO_2$) иштирокида 2-гидроксибензой таъсир эттирамиз:



2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3ни олиш жараёни ишқорий муҳитда салицил кислота таъсир эттириш орқали амалга оширилади, диазогуруҳ оксигруппага нисбатан пара ҳолатда жойлашади.



Сўнгра маҳсулот филтрланди ва 113°С ҳароратда қуритилди. Жараёнда 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 газсимон ва қаттиқ чиқиндилар ҳосил бўлмайди. 24 г 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 бўёғи олинди. Маҳсулот унуми: 92%. Суюқ

ISSN 3030-3907

чиқинди сифатида кучсиз сувли NaCl, H_2O, охирги тайёр маҳсулот ҳосил бўлади. 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 суюқланиш ҳарорати 204-205 ^oC бўлган оч сариқ рангли маҳсулот бўлиб, кўплаб органик эритувчиларда эрийди. Одатда, азобирикиш реакцияси шундай олиб бориладики, унинг охирига бориб реакцион массада азобирикманинг озгина ортиқчаси қолади ва диазобирикма мутлақо чиқинди сифатида ортиб қолмайди.

Азогуруҳдаги "N" атомлари – гибридланиш ҳолатида бўлиб, ҳар бир атомнинг учта SP^2 – орбиталларидан иккитаси σ-боғ ҳосил қилишда иштирок этади, учинчисида тақсимланмаган электрон жуфти жойлашади, π-боғ эсаР³-орбиталлар ҳисобига ҳосил бўлади. Натижада, азогуруҳ ночизиқли бўлиб, бу азобирикманинг цис- ва транс- изомерлари мавжудлигини таъминлайди [3]. Эритмалар нурлантирилаётган азобирикманинг ютилиш чизиғига мос келадиган тўлқин узунлигидаги ёруғлик билан нурлантирилганда сис-изомерга айланадиган трансформ шакл барқарор ҳисобланади.


ИК- спектрида 2-хлорфенил-азо-4'-гидроксифенил-карбокси-3' қуйидаги чегарада сигнал беради 800-3400 см $^{-1}$, 1584 см $^{-1}$ (-N=N-); 3465 см $^{-1}$ (–OH); 757 см $^{-1}$ диалмашган ароматик ҳалқа; 835 см $^{-1}$ триалмашган ароматик ҳалқа; 1655 см $^{-1}$ (-COOH); 677 см $^{-1}$ (-CI)

УФ- спектрида 2-хлорфенил-азо-4'-гидроксифенил-карбокси-3' қуйидаги соҳада ютилиш чизиқлари кузатилади 200-360нм, 358нм (-N=N-); 208нм (–OH); 247нм (-COOH); 239нм (-CI)

В **ПМР-** спектирид 2-хлорфенил-азо-4'-гидроксифенил-карбокси-3' H-3 =7,60 м.g., м, H-4,5= 7,27 м.g., м, H-6= 7,45 м.g., м, H-2′= 8,41 м.g.,g (2,6 Гц), H-5′= 6,82 м.g., g (8,8 Гц), H-6′= 7,87 м.g., gg (8,8; 2,6 Гц) сигналларини беради.

1-Жадвал

Маҳсулотнинг физико- кимёвий параметри

Структур формула	Унумдорлик %	Тсуюқ ^oC	R_f	Брутто формула	Элем.анал.N, %	
					Ҳисоблаш,%	Топ. %
	92%	204-205^0C	0,62	$C_{13}H_9ClN_2O_3$	10,3	9,89

ISSN 3030-3907

Сўнгги босқичдан сўнг 24г олинган маҳсулотнинг чиқиш унумдорлиги 92%ни ташкил этади. 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 ни олиш жараёнида газсимон ва қаттиқ чиқиндилар ҳосил бўлмайди. Жараён охирида таркиби NaCI и H_2O аралашмасидан кучсиз эритма чиқинди сифатида ҳосил бўлади. Тайёр маҳсулот 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 кўпгина органик эритувчиларда эрийдиган қизғиш-малла рангли кукунсимон моддадир.

НАТИЖА. Мазкур синтез қилиб олинган препарат устида ўтказилган токсикологик текширувлар шундан далолат берадики, 2-хлорфенил-азо-4'-гидроксифенил-карбокси-3' (ЖШД-4) кам заҳарлилик даражасига эга (4-синф) маҳсулот ҳисобланиб, қишлоқ хўжалигида кенг қўлланиш учун тавсия этилади. Бу тур вакилларидан пестицидлар, фунгицидлар, инсектицидлар, бактерицидлар, ўстирувчи стимуляторлар ва дефолянтлар сифатида қишлоқ хўжалигида кенг миқёсда қўлланилади [3]. Шунингдек, биологик текширувлар хулосаси маккажўҳори, пахта, помидор ва бодринг учун ўстирувчи ва ривожлантирувчи ҳамда зараркунандалардан ҳимояловчи фаол биостимулятор эканлигидан гувоҳлик беради.

ТАДБИҚ ЭТИШ. Қарши тумани «Хонабод» МТПга қарашли «Удаев Жамшид Шамсиевич» фермер хўжалиги далаларида олиб борилди. Экишдан олдин ғўзанинг бухоро-6 нави уруғига ЖШД-4 препаратини 0,1 % ли концентрацияли эритмаси билан ишлов берилди ва экилди.

Ғўза экилгач, 3 кундан кейин уруғнинг унувчанлик ҳолати, 4-куни эса илдиз ва поянинг ўсиш даражаси аниқланди. Кейинги ғўзанинг ўсиши ва ривожланиши (униб чиқиш, чинбарг чиқариш, шоналаш, гуллаш ва пишиш) даврларида ўтказилган фенологик кузатишлар асосида ҳосилдорлик ва иқтисодий самарадорлик ҳисобланди.

Шу билан бирга назорат вариант билан таққослаш асосида ғўзанинг ўсиши, ривожланиши, ҳамда зараркунанда ва касалликларга чидамлилиги ўрганиб чиқилди ва тегишли маьлумотлар олинди.

ЖШД-4 препаратининг 0,1 % ли концентрацияли эритмаси билан ишлов берилган уруғнинг унувчанлиги 3-кунда назорат вариантига нисбатан 105,5 %, 5-куни 112,5 % ни ташкил этди. Илдизнинг ўсиши 3-куни 108,4 %, 5-куни 116,5 % га кўп бўлди. Поянинг ўсиши 7-куни 115,3 %, 10-куни 116,5 % га кўп бўлди, ишлов берилмаган вариантга нисбатан 2 кун олдин униб чикди.

Май ойига келиб ғўзанинг бўйи 25 см бўлиб, назорат вариатига нисбатан препарат билан ишланган майдончаларда 3-4 кун олдин шоналашни бошлади.

ISSN 3030-3907

Июн ойига келиб ғўза бўйи 32 см, ҳосил элементлари сони 5 тага кўп бўлди. Бу эса ЖШД-4 препарати билан ишлов берилганда 114,3 % ни ташкил этди. Июл ойига келиб ғўзанинг бўйи 46 см, препарат билан ишлов берилган ўсимликларда ҳосил элементлари сони 7 тага кўп бўлди.

Август ҳолати бўйича бўйи 65 см, хосил элементлари эса 22 донани ташкил этди.

Сентябрдаги хосилдорлик натижасига кўра кўсаклар сони 27 донани ташкил этди. Ҳосилдорлик гектарига 45.6 ц/га ни ташкил этди.

Қарши тумани «Хонабод» МТПга қарашли «Удаев Жамшид Шамсиевич» фермер хўжалиги пахта даласида ЖШД-4 препаратининг 0,1 % концентрацияли эритмаси қўлланилганда ҳар гектар ердан кўшимча 5,8 ц пахта ҳосили олинди, бир гектардан 1310177 сўм, назорат варинтига нисбатан 302063 сўм соф фойда олинди.

Бундан ташқари назорат вариантига нисбатан ҳосилни эрта етилиши, касаллик ва зараркунандаларга чидамлилигини ошиши кузатилди.

ХУЛОСА. Ишнинг афзаллик томони шундаки, 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3ни олиш усули оддий, унумдор, қулай ва юқори самарали, маҳсус аппаратлар талаб этилмайди. Шунингдек, реакциялар хона шароитида олиб борилади ҳамда киммат хом ашё талаб килинмайди. Дастлабки маҳсулотларни ва эритувчиларни таннархининг арзонлиги ва охирги маҳсулотнинг юқори фоизларда чиқиши иқтисодий самарадорликни беради.

Шунингдек, 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 таркибли синтез маҳсулотимиз турли полимер материаллар, пластмассалар ва синтетик толаларни бўяш учун бўёқ сифатида ишлатилган. Бундан ташқари, пигмент сифатида 2-хлорфенил-азо-4-гидроксифенил-карбокси-3 ҳосиласи бўлган ЖШД-3 препаратини қўллаган ҳолда оч сариқ рангли ПФ-133 лок-бўёқ материалларининг тажриба-саноат партияси ишлаб чиқарилди.

Бу борадаги тадқиқотлар давом этмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Wunderlich Klaus, Harms Woltgang. Azoreaktiviarbstoffe [Bayer AG] // заяв. Германия, кл. C 09 И 62/08; №2729240; заявл. 29.06.97, опубл. 4.01.99.
2. Кисимото Сатоси. Реакция азосочетания. // Sci. and ind., 1997, № 1, с. 37 (яп.)
3. Джураева, Шохиста Дилмурадовна, and Наргиса Бекмурадовна Турабоева. "ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИОНОВ БЛАГОРОДНЫХ МЕТАЛЛОВ В МОДЕЛЬНЫХ СМЕСЯХ С РАСТВОРОМ ФКМДФТК." Научный журнал 3 (58) (2021): 17-18.
4. Джураева, Ш. Д. "ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ISSN 3030-3907

ОРГАНИЧЕСКИХ РЕАГЕНТОВ." Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности 1.2 (2023): 207-212.

5. Рахматов, Худоёр Бобониёзович, Шохиста Дилмурадовна Джураева, and Аббос Тоштемирович Караев. "Теоретический анализ систем, обосновывающих получения нитрата калия." Молодой ученый 18 (2015): 1-3.

6. Dilmuradovna, Juraeva Shokhista. "Titration of Rare Metals with DMGO Solutions in Non-Aqueous Media." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 4.3 (2024): 88-89.

ISSN 3030-3907

SHAHARLAR ATMOSFERA HAVOSIGA TASIR QILUVCHI MANBALARNI URGANISH VA AMALIY YECHIMLAR.

Hayitov Jamoliddin Nizom o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti
O‘zbekiston. Qarshi.sh.
E-mail: hayitovjamoliddin280@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada shahar atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo‘luvchi asosiy manbalar, ularning ekologik va sanitariya-gigiyenik ta’siri hamda havoning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha amaliy yechimlar o‘rganildi. Tadqiqot davomida avtomobil transporti, sanoat korxonalari, issiqlik energetikasi tizimlari va maishiy chiqindilar atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omillar sifatida tahlil qilindi. Atmosfera tarkibidagi chang zarrachalari, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi va boshqa zararli moddalarning inson salomatligiga salbiy ta’siri ilmiy manbalar asosida baholandi. Shuningdek, ekologik monitoring tizimlari, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik transport vositalaridan foydalanish hamda sanoatda zamonaviy filtrlash texnologiyalarini joriy etishning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish uchun kompleks ekologik boshqaruv tizimini joriy etish zarurligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: atmosfera havosi, ekologiya, ifloslanish, sanoat chiqindilari, transport gazlari, ekologik monitoring, yashil hudud, havoni muhofaza qilish.

Abstract. This scientific article studies the main sources affecting urban atmospheric air pollution, their environmental and sanitary impacts, and practical solutions for improving air quality. The research analyzes motor vehicles, industrial enterprises, thermal power systems, and household waste as the main factors of atmospheric pollution. The harmful effects of particulate matter, nitrogen oxides, sulfur dioxide, and carbon monoxide on human health were evaluated based on scientific sources. The effectiveness of environmental monitoring systems, expansion of green areas, use of eco-friendly transport, and implementation of modern filtration technologies in industry were also analyzed. The study concludes that an integrated environmental management system is necessary to reduce atmospheric pollution in urban areas.

Keywords: atmospheric air, ecology, pollution, industrial emissions, transport gases, environmental monitoring, green zones.

Аннотация. В данной научной статье исследованы основные источники загрязнения атмосферного воздуха городов, их экологическое и санитарно-гигиеническое воздействие, а также практические решения по улучшению качества воздуха. В ходе исследования были проанализированы

автомобильный транспорт, промышленные предприятия, теплоэнергетические системы и бытовые отходы как основные факторы загрязнения атмосферы. На основе научных источников оценено негативное влияние пылевых частиц, оксидов азота, диоксида серы и угарного газа на здоровье человека. Также рассмотрена эффективность экологического мониторинга, расширения зелёных зон, использования экологически чистого транспорта и внедрения современных технологий фильтрации на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: атмосферный воздух, экология, загрязнение, промышленные выбросы, транспортные газы, экологический мониторинг, зелёные зоны.

KIRISH.

Atmosfera havosi biosferaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, inson hayoti, biologik organizmlar faoliyati va ekologik tizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Atmosfera tarkibidagi kislorod, azot, karbonat angidrid va boshqa gazlarning tabiiy muvozanati yer yuzidagi barcha tirik organizmlar hayoti uchun zarur hisoblanadi. Biroq sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, urbanizatsiyaning kengayishi, energetika resurslariga talabning ortishi hamda avtomobil transporti sonining keskin ko‘payishi natijasida atmosfera havosining ifloslanishi global ekologik muammoga aylandi.

XXI asrga kelib atmosfera havosining ifloslanishi dunyo miqyosida ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab insonlar atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq kasalliklar sababli hayotdan ko‘z yumadi. Ayniqsa yirik sanoatlashgan shaharlarda atmosfera tarkibidagi PM2.5 va PM10 dispers chang zarrachalari, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, benzol, formaldegid va boshqa toksik moddalarning me’yoriy ko‘rsatkichlardan ortib ketishi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Urbanizatsiya jarayonlari natijasida shaharlarda sanoat korxonalari, avtomobil transporti va energetika obyektlari sonining ortishi atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmini oshirmoqda. Ayniqsa avtomobillardan ajralib chiqadigan uglerod oksidi, azot oksidlari, uglevodorodlar va qurum zarrachalari shahar ekologiyasining yomonlashuviga sabab bo‘lmoqda. Ichki yonuv dvigatellarida yoqilg‘ining to‘liq yonmasligi natijasida hosil bo‘ladigan zararli gazlar havoning tabiiy tarkibini o‘zgartirib, smog va fotokimyoviy reaksiyalar yuzaga kelishiga olib keladi.

Sanoat korxonalari ham atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi manbalari qatoriga kiradi. Metallurgiya, neft-gazni qayta ishlash, sement ishlab

ISSN 3030-3907

chiqarish, kimyo va energetika korxonalari faoliyati natijasida atmosfera tarkibiga katta miqdorda oltingugurt dioksidi, azot oksidlari, chang zarrachalari va uchuvchan organik birikmalar chiqariladi. Ushbu moddalar atmosfera namligi bilan reaksiyaga kirishib kislotali yomg‘irlarni hosil qiladi va ekologik tizimlarga zarar yetkazadi.

Shahar atmosfera havosining ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, atmosfera havosidagi zararli moddalarning yuqori konsentratsiyasi nafas olish tizimi kasalliklari, bronxial astma, yurak-qon tomir kasalliklari va onkologik kasalliklar rivojlanish xavfini oshiradi. Ayniqsa bolalar va keksalar atmosfera ifloslanishiga nisbatan sezgir qatlam hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham atmosfera havosini muhofaza qilish davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ekologik monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish, yashil hududlarni kengaytirish, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish va sanoat korxonalarida zamonaviy gaz tozalash texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada shahar atmosfera havosiga ta’sir qiluvchi asosiy manbalar, ularning ekologik va sanitariya-gigiyenik oqibatlari hamda havoning sifatini yaxshilash bo‘yicha zamonaviy amaliy yechimlar ilmiy jihatdan o‘rganildi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning ekologik oqibatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab rivojlangan. Atmosfera ekologiyasi sohasidagi dastlabki fundamental tadqiqotlar M. Molchanov, V. Vernadskiy va G. Dobrovolskiy kabi olimlarning ishlari bilan bog‘liq.

Atmosfera ifloslanishining asosiy manbalari sifatida sanoat chiqindilari, energetika tizimlari va transport vositalari ko‘plab ilmiy ishlarda qayd etilgan. Tadqiqotlarda avtomobil gazlaridagi uglerod oksidi, azot oksidlari va benz(a)piren inson salomatligi uchun yuqori xavfli ekanligi aniqlangan.

So‘nggi yillarda ekologik monitoring tizimlari va GIS texnologiyalaridan foydalanish atmosfera havosi sifatini baholashda keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va avtomatlashtirilgan monitoring stansiyalari yordamida real vaqt rejimida atmosfera havosi nazorat qilinmoqda.

Ilmiy manbalarda yashil hududlarni kengaytirish va elektromobillardan foydalanish atmosfera ifloslanishini kamaytirishda samarali usul sifatida ko‘rsatilgan. Daraxtlar karbonat angidridni yutib, kislorod ajratishi orqali havoning tabiiy tozalanishiga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

METODOLOGIYA: Tadqiqot davomida atmosfera havosining ifloslanish manbalari va ularning ekologik ta’sirini baholash uchun statistik tahlil, ekologik monitoring va ilmiy manbalarni taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda quyidagi parametrlar o‘rganildi:

chang zarrachalari (PM2.5 va PM10);

uglerod oksidi (CO);

azot oksidlari (NOx);

oltingugurt dioksidi (SO_2);

uchuvchan organik birikmalar.

Monitoring ma’lumotlari asosida transport harakati zich bo‘lgan hududlar, sanoat zonalari va yashash massivlaridagi havoning sifat ko‘rsatkichlari taqqoslandi.

TADQIQOT NATIJASI. Tadqiqot davomida shahar atmosfera havosining ifloslanish darajasi va unga ta’sir qiluvchi asosiy manbalar kompleks ravishda tahlil qilindi. Monitoring natijalari asosida atmosfera havosining sifatiga eng katta salbiy ta’sir avtomobil transporti, sanoat korxonalari, issiqlik energetikasi tizimlari va maishiy chiqindilarni yoqish jarayonlari orqali yuzaga kelishi aniqlandi.

Transport harakati zich bo‘lgan markaziy hududlarda uglerod oksidi (CO), azot oksidlari (NOx) va mayda dispers chang zarrachalari (PM2.5 va PM10) konsentratsiyasi yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, avtomobil qatnovi yuqori bo‘lgan hududlarda azot oksidlari miqdori ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyadan 1,8–2,4 baravar yuqori bo‘lishi qayd etildi. Ayniqsa tirbandlik yuzaga keladigan chorrahalarda zararli gazlarning to‘planishi kuchli kuzatildi.

PM2.5 va PM10 dispers zarrachalarining konsentratsiyasi sanoat zonalariga yaqin hududlarda keskin yuqori ekanligi aniqlandi. Metallurgiya, sement ishlab chiqarish va issiqlik elektr stansiyalari faoliyati natijasida atmosfera tarkibiga katta miqdorda chang zarrachalari ajralib chiqishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu hududlarda dispers chang miqdori yashash hududlariga nisbatan o‘rtacha 35–45 % yuqori bo‘lgan.

Atmosfera havosining mavsumiy o‘zgarishlari ham o‘rganildi. Qish mavsumida yoqilg‘i sarfining ortishi natijasida oltingugurt dioksidi (SO_2) va uglerod oksidi miqdori sezilarli oshishi kuzatildi. Yoz mavsumida esa yuqori harorat va quyosh radiatsiyasi ta’sirida fotokimyoviy smog hosil bo‘lish jarayonlari faollashgani aniqlandi. Fotokimyoviy reaksiyalar natijasida ozon va ikkilamchi aerozollar hosil bo‘lishi atmosfera havosining sifatini yanada yomonlashtirdi.

ISSN 3030-3907

Yashil hududlar ko‘p bo‘lgan shaharlarda atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshi ekanligi kuzatildi. Daraxtzor va bog‘lar joylashgan hududlarda chang zarrachalari miqdori o‘rtacha 20–30 % kam bo‘lishi qayd etildi. Bu esa yashil hududlarning havoni tabiiy filtrlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Sanoat korxonalarida zamonaviy gaz tozalash uskunalaridan foydalanish natijasida chiqindilar miqdori sezilarli kamaygani aniqlandi. Elektrofiltr va siklon qurilmalaridan foydalanish chang zarrachalari emissiyasini 70–85 % gacha kamaytirishi mumkinligi hisoblab chiqildi.

Shuningdek, elektromobillar va ekologik toza jamoat transportini joriy etish atmosfera havosining sifatini yaxshilashda samarali usul ekanligi aniqlandi. Modellashtirish natijalariga ko‘ra, elektr transport vositalaridan foydalanish natijasida transport gazlari emissiyasini 35–40 % gacha kamaytirish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish uchun quyidagi amaliy yechimlar samarali ekanligi aniqlandi:
ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish;
sanoat korxonalarida ko‘p bosqichli gaz tozalash texnologiyalarini joriy etish;
yashil hududlar maydonini kengaytirish;
ekologik monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish;
qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish;
chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish.

Olingan natijalar shahar ekologik xavfsizligini ta’minlash va atmosfera havosining sifatini yaxshilash uchun kompleks ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatdi.

Diskussiya. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shahar atmosfera havosining ifloslanishi urbanizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlarining eng muhim ekologik oqibatlaridan biri hisoblanadi. Atmosfera tarkibiga chiqarilayotgan zararli gazlar va dispers zarrachalar miqdorining ortishi ekologik tizimlar barqarorligiga hamda inson salomatligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa yirik shaharlarda transport vositalari sonining keskin ko‘payishi atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlarini yomonlashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlillar natijasida avtomobil transporti atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi manbasi ekanligi aniqlandi. Ichki yonuv dvigatellarida yoqilg‘ining to‘liq yonmasligi natijasida uglerod oksidi, azot oksidlari va uchuvchan organik birikmalar hosil bo‘ladi. Ushbu moddalar atmosfera havosida fotokimyoviy reaksiyalarni yuzaga keltirib, smog hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Smog esa inson organizmiga toksik ta’sir ko‘rsatib, nafas yo‘llari kasalliklari xavfini oshiradi.

ISSN 3030-3907

PM2.5 va PM10 dispers zarrachalarining yuqori konsentratsiyasi ayniqsa xavfli ekanligi kuzatildi. Ushbu mikrozarralar inson organizmiga chuqur kirib borib, o‘pka alveolalarida to‘planishi va yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Tibbiy tadqiqotlar ham atmosfera havosidagi mayda dispers zarrachalar miqdori ortishi bilan bronxial astma, surunkali bronxit va yurak kasalliklari xavfi oshishini tasdiqlaydi.

Sanoat korxonalari faoliyati ham atmosfera ifloslanishining muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Metallurgiya, kimyo sanoati, sement ishlab chiqarish va issiqlik elektr stansiyalaridan chiqarilayotgan oltingugurt dioksidi va chang zarrachalari atmosfera tarkibining tabiiy muvozanatini buzmoqda. Ushbu gazlar atmosfera namligi bilan reaksiyaga kirishib, kislotali yomg‘irlarni hosil qiladi. Kislotali yog‘inlar tuproq unumdorligini kamaytiradi, suv havzalarining kimyoviy tarkibini o‘zgartiradi hamda o‘simlik qoplamiga zarar yetkazadi.

Tadqiqot davomida yashil hududlarning atmosfera havosini tabiiy tozalashdagi ahamiyati ham tasdiqlandi. Daraxtlar karbonat angidridni yutib, kislorod ajratishi bilan birga chang zarrachalarini ushlab qoladi va mikroiqlimni yaxshilaydi. Ayniqsa shahar park va xiyobonlari atmosfera havosidagi chang miqdorini kamaytirishda samarali ekologik vosita ekanligi aniqlandi. Shu sababli zamonaviy shaharsozlikda “yashil infratuzilma” konsepsiyasini rivojlantirish muhim ekologik yechim hisoblanadi.

XULOSA. Mazkur ilmiy tadqiqot davomida shahar atmosfera havosiga ta’sir qiluvchi asosiy ifloslantiruvchi manbalar, ularning ekologik va sanitariya-gigiyenik oqibatlari hamda havoning sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy yechimlar kompleks ravishda o‘rganildi. Olingan natijalar atmosfera havosining ifloslanishi zamonaviy urbanizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlarining eng dolzarb ekologik muammolaridan biri ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi manbalari avtomobil transporti, sanoat korxonalari, issiqlik energetikasi tizimlari va maishiy chiqindilarni yoqish jarayonlari ekanligi aniqlandi. Ayniqsa ichki yonuv dvigatellaridan ajralib chiqadigan uglerod oksidi, azot oksidlari va dispers chang zarrachalari shahar ekologik muhitining yomonlashuviga asosiy sabab bo‘layotgani qayd etildi. Sanoat korxonalaridan chiqarilayotgan oltingugurt dioksidi va chang zarrachalari esa atmosfera tarkibining tabiiy muvozanatini buzib, kislotali yog‘inlar hosil bo‘lishiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Monitoring natijalari PM2.5 va PM10 zarrachalari konsentratsiyasi transport va sanoat hududlarida me’yoriy ko‘rsatkichlardan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu mayda dispers zarrachalarning inson organizmiga chuqur kirib borishi nafas olish tizimi, yurak-qon tomir va onkologik kasalliklar rivojlanish

ISSN 3030-3907

xavfini oshirishi aniqlandi. Bu esa atmosfera havosining ifloslanishi nafaqat ekologik, balki muhim ijtimoiy va tibbiy muammo ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida yashil hududlarning atmosfera havosini tabiiy filtrlashdagi ahamiyati ham tasdiqlandi. Daraxtzor va bog‘lar atmosfera tarkibidagi chang zarrachalarini kamaytirishi, karbonat angidridni yutishi va mikroiqlimni yaxshilashi aniqlandi. Shu sababli shaharsozlik siyosatida yashil hududlarni kengaytirish ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sanoat korxonalarida zamonaviy gaz tozalash texnologiyalarini joriy etish va ekologik monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish atmosfera havosining sifatini yaxshilashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Elektrofiltrlar, siklon qurilmalari va ko‘p bosqichli filtrlash tizimlari zararli emissiyalar miqdorini sezilarli kamaytirishi mumkinligi ilmiy asoslandi.

Elektromobil va ekologik toza jamoat transport tizimlarini rivojlantirish ham atmosfera ifloslanishini kamaytirishda istiqbolli ekologik yechim sifatida baholandi. Hisob-kitob natijalari ekologik transport vositalaridan foydalanish zararli gazlar emissiyasini sezilarli kamaytirishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish issiqlik energetikasi tizimlaridan chiqadigan zararli gazlarni kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Umuman olganda, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish uchun transport, sanoat, energetika va shaharsozlik tizimlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda kompleks ekologik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Olingan ilmiy natijalar ekologik xavfsizlikni ta’minlash, shahar muhitini sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oila va tabiat gazetasi 17. 07. 2025 yil 28 soni
2. "Bizning umumiy kelajagimiz" (Brundtland hisoboti, 1987)
3. Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (1992)
4. "2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi" (BMT, 2015)
5. Mahmud Fathi El-Sharkavi va Osama Ahmad Ibrohim ,,Restoran mo‘rilaridan chiqadigan chiqindilarning tashqi havo sifatiga ta'siri‘‘.
6. I.X.Ayubova, M.N.Musayev, ,,Atrof-muhit sifat analizi va monitoring‘‘ Toshkent 2011-yil.
7. « Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o‘rni hamda rivojlanish omillari » mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy amaliy konferensiya materiallari (5 yanvar 2025 yil) – T.: Qo‘qon sh. 2025

ISSN 3030-3907

8. Air Pollution Control Engineering — De Nevers N. Air Pollution Control Engineering. — New York: McGraw-Hill, 2010. — 607 p.
9. Environmental Engineering — Peavy H. S., Rowe D. R. Environmental Engineering. — New York: McGraw-Hill, 1985. — 719 p.
10. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi — Qodirov A. X. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 312 b.
11. Atmosfera ekologiyasi va monitoring — Xidirov S. R. Atmosfera ekologiyasi va monitoring. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 284 b.

ISSN 3030-3907

OLIY TA'LIMNI SANOATGA INTYEGRASIYALASHNING TAMOYILLARI: OLTITA ILG‘OR DAVLAT TAJRIBASI VA O‘ZBYEKISTON UCHUN IIES-UZ MODYELI TAKLIFI

Safarov Xoliyor Sayyid Safar o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: sayyidsafarov23@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada Germaniya, AQSh, Singapur, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Xitoy oliy ta'lim tizimlarida sanoatga integrasiya tajribasi tizimli tahlil qilingan. Har bir mamlakatning asosiy modeli, moliyalashtirish mexanizmi, samaradorlik ko‘rsatkichlari va notakror xususiyatlari aniqlangan. Ushbu tahlil asosida O‘zbekiston oliy ta'limida mavjud bo‘shliqlar — institusional, moliyaviy, normativ-huquqiy va texnologik — aniqlangan va ko‘rsatkichlar orqali asoslangan. Asosiy ilmiy yangilik sifatida O‘zbekiston uchun TIES-UZ (Technology Integration in Education System — Uzbekistan) modeli taklif etiladi. Ushbu model 6 davlat tajribasidan eng mos elementlarni O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va institusional sharoitiga moslashtirib sintez qiladi hamda uch bosqichli amalga oshirish yo‘l xaritasini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta'lim, sanoatga integrasiya, dual ta'lim, Triple Helix modeli, texnologiya transferi, LINC dasturi, TIES-UZ, ish bozori, kadr mismatch, O‘zbekiston ta'lim islohoti.

Аннотация. В данной статье представлен системный анализ опыта интеграции высшего образования с промышленностью в таких странах, как Германия, США, Сингапур, Южная Корея, Финляндия и Китай. Определены основные модели, механизмы финансирования, показатели эффективности и уникальные особенности каждой страны. На основе данного анализа выявлены и обоснованы с помощью количественных показателей существующие пробелы в системе высшего образования Узбекистана — институциональные, финансовые, нормативно-правовые и технологические. В качестве основной научной новизны для Узбекистана предлагается модель TIES-UZ (Technology Integration in Education System — Uzbekistan). Данная модель синтезирует наиболее подходящие элементы опыта шести стран, адаптируя их к социально-экономическим и институциональным условиям Узбекистана, и включает в себя трехэтапную дорожную карту реализации.

Ключевые слова: высшее образование, интеграция с промышленностью, дуальное образование, модель Triple Helix, трансфер технологий, программа LINC, TIES-UZ, рынок труда, kadr mismatch (несоответствие кадров), реформа образования Узбекистана.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article provides a systematic analysis of industrial integration experiences within the higher education systems of Germany, the USA, Singapore, South Korea, Finland, and China. The core models, financing mechanisms, performance indicators, and unique characteristics of each nation are identified. Based on this analysis, existing gaps in Uzbekistan's higher education—specifically institutional, financial, regulatory, and technological—are pinpointed and substantiated through key metrics. As a primary scientific innovation, the TIES-UZ (Technology Integration in Education System – Uzbekistan) model is proposed. This model synthesizes the most suitable elements from the experiences of these six nations, adapting them to the socio-economic and institutional conditions of Uzbekistan, and includes a three-stage implementation roadmap.

Keywords: higher education, industry integration, dual education, Triple Helix model, technology transfer, LINC program, TIES-UZ, labor market, skill mismatch, Uzbekistan education reform.

KIRISH.

Jahon ta'limida bilim, raqobatbardosh kadr dominantligi kuchayib borayotgan bir davrda oliy ta'limni sanoat bilan integrasiyalash davlat raqobatbardoshligining strategik omiliga aylanmoqda. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, [4] dual ta'lim tizimi rivojlangan Germaniyada yoshlar ishsizligi 2023 yili 6,4 % ni tashkil etdi — Yevropa Ittifoqi o'rtachasidan 8 % ga past. Singapurda oliy ta'lim bitiruvchilarning 95 % dan ortig'i olti oy ichida ishga joylashadi [6]. Bu natijalar oliy ta'lim-sanoat integrasiyasining puxta ishlab chiqilgan tizimiy modeli mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda 2016–2025 yillar davomida oliy ta'lim qamrovi 9 % dan 42 % ga ko'tarildi, universitetlar soni 77 tadan 213 taga oshdi [12]. Ammo ta'lim-sanoat integrasiyasi hali tizimiy darajaga erishmagan: yoshlar ishsizligi 15-24 yosh guruhida 13–17 % atrofida, kadr mismatch (инглизча *skill mismatch*) esa davlat tomonidan ham tan olinmoqda [13, 14]. Korxonalarning ta'lim jarayoniga moliyaviy ishtiroki minimal, texnologiya transferi tizimi esa rivojlanish boshqichida [16].

Ushbu maqolaning maqsadi — oliy ta'lim-sanoat integrasiyasida ildam tajribaga ega olti davlat (Germaniya, AQSh, Singapur, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Xitoy) tajribasini tizimli tahlil etish; O'zbekistondagi integrasiya bo'shliqlarini aniqlash; va ushbu tahlil asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan TIES-UZ modelini taklif qilishdan iborat. Maqolani ilmiy yangiligi — sintetik adaptiv model taklifida, ya'ni olti davlatning eng samarali elementlarini O'zbekiston kontekstiga moslashtirib birinchi marta tizimlashtirishdadir.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOS.

Oliy ta'lim-sanoat integrasiyasini tushuntiruvchi asosiy nazariy baza — Genri Esskovits va Loet Leydesdorf tomonidan ishlab chiqilgan Uchtalik spiral (spiral uchlik) modeli [17]. Ushbu modelda universitet, sanoat va davlat — uch teng sub'ekt — innovatsion yangilikka yunaltirilgan muhitni hosil qilish uchun doimiy o‘zaro ta'sirda bo‘ladi. Modelning rivojlanishi to‘rtlamchi spiral (fuqarolik jamiyati ham qo‘shiladi) va beshlamchi spiral (atrof-muhit ishtirok etadi) yondashuvlariga olib keldi [9].

Oliy ta'lim-sanoat integrasiyasining amaliy jihatini tushuntiruvchi ikkinchi muhim nazariy asos — Structure-Conduct-Performance (SCP) paradigmasi. Gong [11] ishida ushbu paradigma asosida integrasiya samaradorligini baholash tizimi ishlab chiqilgan; Xitoy provinsiyalarida 2000–2022 yillar ma'lumotlari bo‘yicha oliy ta'lim va sanoat o‘rtasidagi bog‘lanish mustahkamlashishi ishga joylashtirish sifatini oshirishi empirik isbotlangan.

Germaniya dual tizimi adabiyotlarda [2, 3] eng chuqur o‘rganilgan model hisoblanadi. 152 ta dual dastur klaster tahlili ko‘rsatishicha [1], integrasiyaning besh turi mavjud — trening-integrasiya, amaliyot-integrasiya va ular oraliq shakllari. Yoshlar ishsizligiga ta'siri nuqtai nazaridan Germaniya dual tizimi YeIning eng samarali modelidir [4].

OLTI DAVLAT TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLIL.

1-jadvalda olti davlatning oliy ta'lim-sanoat integrasiya modeli asosiy parametrlar bo‘yicha tizimlashtirilgan. Ma'lumotlar [2–11, 16] manbalar asosida to‘plangan.

1-Jadval

Olti davlatning oliy ta'lim-sanoat integrasiyasi tajribasini qiyoslash

Davlat	Model nomi	Asosiy mexanizm	Moliyalashtirish	Asosiy natijalar
Germaniya	Dual ta'lim (Duales System)	Korxonada 3–4 kun + univ. 1–2 kun	Davlat + korxona (50/50)	Yoshlar ishsizligi: 6,4% (YeI 14,5%); bitiruvch. ishga joyl. 90%+
AQSh (MIT/Stanford)	Innovasion transfer ekotizimi	OTL, Tech Licensing,	Xususiy investisiya + federal grant	Stanford OTL: 50 yilda 3000+

ISSN 3030-3907

		Spinoff, SBIR grantlar		lisenziya; 700+ startap
Singapur	Industry-on-Campus modeli	Korxona kampusda joylashadi, birgalikda R&D	YaIMning 1%+ oliy ta'limga	Grad. band bo‘lish: 95%+ (6 oy ichida)
Janubiy Koreya	LINC 3.0 dasturi	Davlat 53 univ.ga yillik 4 mlrd von, korxona+univ. konsorsium	Ta'lim vazirligi byudjeti	Texnologiya transferi 200 mlrd von; patent+40%
Finlyandiya	Triple Helix + SHOK markazlar	Davlat-univ.-sanoat uch tomonlama hamkorlik	Tekes (innovasiya agentligi) + sanoat	IT klasterlar, Nokia→Aalto ekotizimi
Xitoy	Sanoat-ta'lim konstruksiyasi	Univ. va korxona birgalikda o‘quv reja tuzadi	Davlat majburiy normativ	689 univ.: ish joyl. sifati ortdi; texnoparklar

Germaniya: Duales System — «ish va o‘qish» dualizmi

Germaniya dual ta'lim tizimi jahonda eng chuqur o‘rganilgan model hisoblanadi. Tizimning huquqiy asosini Federal kasb-hunar ta'limi to‘g‘risidagi qonun (Berufsbildungsgesetz) tashkil etadi. Talaba haftasiga 3–4 kun korxonada, 1–2 kun maktab/universitetda o‘qiydi. Mazmun teng taqsimlanadi: korxona amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, davlat ta'lim muassasasi nazariy bilim beradi. Xarajatlar davlat va korxona o‘rtasida 50/50 taqsimlanadi [3].

to‘g‘ri chiziqlar bilan $y = f(x)$ funksiya grafigining kesishish nuqtalari $y = [f(x)]$ funksiyani grafigiga kiradi, qaralayotgan oraliqdagi $y = [f(x)]$ funksiyaning boshqa nuqtalari esa shu oraliqdagi funksiya grafigining $y = n$ to‘g‘ri chiziqlarga proyeksiyasi sifatida olinadi, chunki bu oraliqda $y = f(x)$ funksiya grafigining ixtiyoriy M nuqtasining y_0 ordinatasi

$$n < y_0 < n + 1$$

oraliqda bo‘lib, uning butun qismi $|y_0| = n$ teng bo‘ladi.



2-rasm

$y = f(x)$ funksiya grafigi joylashgan boshqa oraliqlardagi $y = [f(x)]$ funksiya grafigi ham xuddi singari chiziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

1-misol. $y = [x]$ ($[x]$ ifoda x ning butun qismi) funksiyaning grafigini chizing.


Yechim. Agar $x = n + r$ (bunda n –butun son, $0 \le r \le 1$) bo‘lsa, u holda $[x] = n$, ya’ni u x dan oshmaydigan eng katta butun songa teng bo‘ladi. Bu funksiya $x = n$ nuqtada birinchi tur uzilishga ega, chunki:

$$\lim_{x \to n-0} f(x) = \lim_{x \to n-0} [x] = n - 1, \qquad \lim_{x \to n+0} f(x) = \lim_{x \to n+0} [x] = n$$

$$y = \begin{cases} 0, \ agar \ \ 0 \le x < 1, \\ 1, \ agar \ \ 1 \le x < 2, \\ 2, \ agar \ \ 2 \le x < 3, \\ .... \\ k, \ agar \ \ k \le x < k+1. \end{cases}$$


Bu funksiyaning grafigi quyidagi chizmada tasvirlangan.

ISSN 3030-3907




3-rasm.

2-misol. $y = [x^2]$ **funksiyaning grafigi quyidagi chizmada tasvirlangan.**



4-rasm.

3-misol. $y = [2^x]$ **funksiyaning grafigi 5-chizmada tasvirlangan.**



5-rasm

$y = f([x])$ ko‘rinishdagi funksiyaning grafigini yasash.


$y = f([x])$ ko‘rinishdagi funksiyaning grafigini chizish quyidagi tartibda bajariladi.

1) $y = f(x)$ funksiyaning grafigi chiziladi;

2) $y = n (n \in Z)$ to‘g‘ri chiziqlar chizilib, $x = n$, $x = n + 1$ to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan oraliqlardan biri qaraladi;

ISSN 3030-3907

3) $y = f(x)$ funksiya grafigining $x = n,\ \ x = n + 1$ to‘g‘ri chiziqlar bilan kesishish nuqtalari $y = f([x])$ funksiya grafigiga kiradi, chunki ularning absissalari butun sonlardan iborat, qaralayotgan oraliqdagi $y = f([x])$ funksiya grafigining boshqa nuqtalari esa shu oraliqdagi funksiya grafigining $y = f(n)$ to‘g‘ri chiziqqa proyeksiyasi sifatida olinadi, chunki bu oraliqdagi ixtiyoriy N nuqtaning x_0 absissasi $n < x_0 < n + 1$ da bo‘lib uning butun qismi $[x_0] = n$ bo‘ladi.




6-rasm

4) $y = f(x)$ funksiya grafigi joylashgan boshqa oraliqlardagi $y = f([x])$ funksiya grafigi xuddi 3- bandidagi singari chiziladi.


Quyida $y = f([x])$ ko‘rinishdagi funksiyalarning grafigini yasashga doir misollar keltiramiz.

4-misol. $y = [x]^2$ funksiya grafigini yasang.



7-rasm

5-misol. $y = 2^{[x]}$ funksiyaning grafigi 8-chizmada tasvirlangan.



8-rasm

ISSN 3030-3907

$y = \{x\}$ funksiyaning xossalari

1) $y = \{x\}$ funksiyaning aniqlanish sohasi barcha R haqiqiy sonlar to‘plamidan iborat.

2) $y = \{x\}$ funksiyaning qiymatlar to‘plami $[0; 1)$ yarim intervaldan iborat.

3) $y = \{x\}$ funksiya davriy bo‘lib uning davri 1 ga teng.

$y = \{f(x)\}$ ko‘rinishdagi funksiyaning grafigini yasash.

$\{f(x)\} = f(x) - [f(x)]$ bo‘lgani uchun $y = \{f(x)\}$ funksiya grafigini chizish $y = f(x)$ va $y = [f(x)]$ funksiyalar ayirmasining grafigini chizishga keltiriladi.

Amalyotda $y = \{f(x)\}$ funksiyaning grafigini chizish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1) $y = f(x)$ funksiya grafigi chiziladi;

2) $y = n (n \in Z)$ to‘g‘ri chiziq grafigi chiziladi;


3) $y = n$ to‘g‘ri chiziq bilan $y = f(x)$ funksiya grafigining kesishgan nuqtalaridan ordinata o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi, natijada funksiyaning

$y = \{f(x)\}$ qiymatlari hosil bo‘lgan to‘rtburchakka tushadi. $y = f(x)$ funksiyaning grafigi yuqori yarim tekislikdagi to‘rtburchakka tushgan qismini n masofa pastga, pastki tekislikdagi to‘rtburchakka tushgan $|n| + 1$ qismini masofagacha yuqoriga ko‘chiriladi.

Endi $y = \{f(x)\}$ ko‘rinishdagi funksiyalarning grafigini yasashga oid ba’zi misollarni qarab o‘tamiz.

6 – misol. $y = \{x\}$ funksiya grafigini tasvirlang.


$$y = \begin{cases} x, & agar\ \ 0 \le x < 1, \\ x-1, & agar\ 1 \le x < 2, \\ \dots \\ x-k, & agar\ k \le x < k+1. \end{cases}$$



9-rasm.


7 – misol. $y = \{x^2\}$ funksiyaning grafigi quyidagi grafikni chizing.

ISSN 3030-3907



10-rasm.

8-misol. $y=\{2^x\}$ **funksiyaning grafigini chizing**



11-rasm

$y=f(\{x\})$ ko‘rinishdagi funksiyaning grafigini yasash

$y=f(\{x\})$ davriy funksiya bo‘lib, uning davri $\omega=1$ ga teng. $y=f(\{x\})=f(x)$, $0\le x\le 1$ funksiyaning bu xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, uning grafigi quyidagi tartibda chiziladi:

1) $[0;1]$ da $y=f(x)$ funksiyaning grafigi chiziladi;

2) $y=f(\{x\})$ funksiyaning davriyligini e’tiborga olib, $y=f(x)$ funksiya grafigi davriy davom ettiriladi.

Quyida $y=f(\{x\})$ ko‘rinishdagi funksiyalarning grafigini yasashga doir misollar keltirib o‘tamiz.

9-misol. $y=x+[x]$ funksiya grafigini chizing.


$[x]$ ni hisobga olgan holda,

$$[x]=\begin{cases}0, agar\ \ 0\le x<1,\\ 1, agar\ \ 1\le x<2,\\ 2, agar\ \ 2\le x<3,\\ ....\\ k, agar\ \ k\le x<k+1.\end{cases}$$

keyin


ISSN 3030-3907

$$x+[x]=\begin{cases} x,\ agar\ \ 0\le x<1, \\ x+1,\ agar\ \ 1\le x<2, \\ x+2,\ agar\ \ 2\le x<3, \\ .... \\ x+k,\ agar\ \ k\le x<k+1. \end{cases}$$



$y=x+[x]$ funksiya grafigi tasvirlangan.

10-misol. $y=\{x\}^2$ funksiya grafigini tasvirlang.



12-rasm.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, sonning butun va kasr qismi qatnashgan funksiyalar matematik analizning muhim va qiziqarli bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Ushbu funksiyalar orqali diskret va uzluksiz jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish, turli matematik modellarni qurish hamda murakkab tenglama va tengsizliklarni yechish mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, butun va kasr qism funksiyalarining asosiy

ISSN 3030-3907

xossalari, jumladan uzilish nuqtalari, periodikligi, monotonligi va grafiklarini qurish usullari ko‘plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Ayniqsa, grafik usul yordamida funksiyalarni tahlil qilish mavzuni tushunishni osonlashtiradi va talabalarning mantiqiy hamda analitik fikrlashini rivojlantiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va matematik dasturlar yordamida ushbu funksiyalar grafiklarini vizual tarzda o‘rganish esa ta’lim samaradorligini yanada oshiradi. Shu sababli sonning butun va kasr qismi qatnashgan funksiyalarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhadova, K. S. (2022). PROBLEMS OF DEVELOPING MATHEMATICAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS. Academic Research in Educational Sciences, 3(3), 316–323. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-3-316-323

2. Abdurasulovich K. J. et al. THE ADVANTAGES OF THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY ON THE BASIS OF VISUAL TEACHING OF SPECIALDISCIPLINES //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 14. – С. 1244-1251.

3. Birgit Pepin, Rolf Biehler, Ghislaine Gueudet. (2021)Mathematics in Engineering Education: a Review of the Recent Literature with a View towards Innovative Practices https://doi.org/10.1007/s40753-021-00139-8

4. Zulfixarov, I. M. Mamasidiqov BQ Mexatronika va robototexnikada ikki karrali integralning mexanik tatbiqlari. *Andijon mashinasozlik instituti xalqaro ilmiy-texnik anjuman.-2023 yil*, 19-21.

5. Raximov.N.N, Mamasidikov.B “Maktab o‘quvchilarida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni yechish” mavzusidagi EURASIAN RESEARCH BULLETIN ilmiy jurnalida 11-soni.11.11.2023 y.

6. Mamasidikov B.Q Yuqori tartibli determinantni hisoblashni qulay usullari “Science and Education” scientific journal / www.openscience.uz Oktober 2023 / volume 4 ISSUE 10. 8-13

7. Mamasidikov B.Q. “Maktab o‘quvchilarida sonning butun va kasr qismlariga oid masalalarni yechish ko‘nikmasini shakllantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish” Monografiya // -AndMI, -2024. -102 b.

ISSN 3030-3907

РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОГО СИМБИОЗА В АГРОПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРАХ В КОНТЕКСТЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Ахмедов Азимжон Олимжонович
Преподаватель Бухарского государственного университета (г. Бухара, Узбекистан)
E-mail: a.o.akhmedov@buxdu.uz
Саидов Умеджон Юсуф ўғли
Преподаватель Бухарского государственного университета (г. Бухара, Узбекистан)
E-mail: saidovumid7744@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития промышленного симбиоза в агропромышленных кластерах как одного из ключевых инструментов циркулярной экономики. Исследуются особенности интеграции принципов промышленного симбиоза в аграрный сектор стран Центральной Азии. На основе анализа международного опыта предложены модели повышения ресурсоэффективности, сокращения отходов и снижения экологической нагрузки. Особое внимание уделено вопросам переработки сельскохозяйственных отходов, энерго- и водосбережения, а также созданию «зелёных» рабочих мест в рамках кластерных структур. Результаты исследования подтверждают экономическую и экологическую эффективность внедрения симбиотических моделей в агропромышленном секторе.

Ключевые слова: промышленный симбиоз, агропромышленный кластер, циркулярная экономика, ресурсоэффективность, зелёная экономика, устойчивое развитие, переработка отходов, Центральная Азия.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of developing industrial symbiosis in agro-industrial clusters as one of the key tools of the circular economy. The study explores the integration of industrial symbiosis principles into the agricultural sector of Central Asian countries. Based on the analysis of international experience, models aimed at improving resource efficiency, reducing waste, and minimizing environmental impact are proposed. Particular attention is paid to agricultural waste processing, energy and water conservation, and the creation of green jobs within cluster structures. The research findings confirm the economic and environmental effectiveness of implementing symbiotic models in the agro-industrial sector.

ISSN 3030-3907

Keywords: industrial symbiosis, agro-industrial cluster, circular economy, resource efficiency, green economy, sustainable development, waste recycling, Central Asia.

Annotatsiya. Maqolada aylanma iqtisodiyotning asosiy vositalaridan biri sifatida agrosanoat klasterlarida sanoat simbiozini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining agrar sektoriga sanoat simbiozi tamoyillarini integratsiyalash xususiyatlari o‘rganiladi. Xalqaro tajribani tahlil qilish asosida resurs samaradorligini oshirish, chiqindilarni qisqartirish va ekologik yukni kamaytirish modellari taklif etildi.Kalit so‘zlar: sanoat simbiozi, agrosanoat klasteri, aylanma iqtisodiyot, resurs samaradorligi, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, chiqindilarni qayta ishlash, Markaziy Osiyo.tilgan. Tadqiqot natijalari agrosanoat sohasida simbiotik modellarni joriy etishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: sanoat simbiozi, agrosanoat klasteri, aylanma iqtisodiyot, resurs samaradorligi, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, chiqindilarni qayta ishlash, Markaziy Osiyo.

ВВЕДЕНИЕ.

В условиях глобальных климатических изменений и растущей нагрузки на природные ресурсы страны Центральной Азии сталкиваются с необходимостью перехода к устойчивым моделям экономического развития. Циркулярная экономика, ориентированная на минимизацию отходов и максимально эффективное использование ресурсов, становится ключевым инструментом достижения целей «зелёного» роста.

В данном контексте особую актуальность приобретает промышленный симбиоз — форма взаимовыгодного сотрудничества предприятий, при которой отходы или побочные продукты одного производства используются в качестве сырья для другого. Для агропромышленного комплекса региона данный подход имеет стратегическое значение.

Агропромышленные кластеры, объединяющие сельскохозяйственные, перерабатывающие и логистические предприятия, представляют собой эффективную платформу для внедрения принципов промышленного симбиоза. Интеграция этих подходов способствует повышению ресурсоэффективности, снижению экологической нагрузки, созданию дополнительной стоимости, укреплению продовольственной безопасности и формированию «зелёных» рабочих мест.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ. Анализ данных ФАО, Всемирного банка и ЦАРЭС за 2020–2024 годы свидетельствует о наличии серьёзных экологических и ресурсных проблем в агропромышленном секторе

ISSN 3030-3907

Центральной Азии. В частности, в Узбекистане и Таджикистане ежегодно образуется более 15 млн тонн сельскохозяйственных отходов, при этом уровень их переработки составляет лишь 25–30 %. Кроме того, сельское хозяйство потребляет около 90 % водных ресурсов региона, тогда как коэффициент эффективности ирригационных систем не превышает 60 %.

В рамках исследования были разработаны три модели промышленного симбиоза

1. Биоэнергетическая модель (животноводческие кластеры)

На примере Согдийской области, где содержится около 50 000 голов крупного рогатого скота и ежедневно образуется 550 тонн навоза, предложено внедрение 10 биогазовых реакторов. Реализация данной модели позволит производить до 65 000 м³ биогаза в сутки (130 МВт·ч энергии), обеспечит экономию около 45 000 долларов США в месяц, а также позволит получать 480 тонн дигестата в сутки, заменяющего до 120 тонн минеральных удобрений. Дополнительно будет создано 25–30 новых рабочих мест.

Таблица1.

Сравнительный Анализ Традиционной И Симбиотической Моделей

Показатель	**Традиционная модель**	**Симбиотическая модель**	**Изменение**
Водопотребление	100%	65–70 %	▼ 30–35%
Энергозатраты	100%	60–65 %	▼ 35–40%
Переработка отходов	25–30 %	80–90 %	▲ 55–60%
Отходы на полигонах	70–75 %	10–20 %	▼ 70–80%
Затраты на сырьё	100%	75–80 %	▼ 20–25%
Добавленная стоимость	0%	18–25 %	▲ 18–25%

Источник: авторская разработка.

2. Водно-энергетическая модель (плодоовощные кластеры)

Для предприятия Ферганской долины с объёмом переработки 200 000 тонн фруктов в год и образованием 40 000 м³ сточных вод предложено внедрение системы оборотного водоснабжения и солнечной электростанции. Данная модель позволит сократить водопотребление на 35

ISSN 3030-3907

%, обеспечить генерацию 2,8 ГВт·ч электроэнергии в год и уменьшить объём сточных вод на 95 %. Предполагаемый экономический эффект составит около 180 000 долларов США в год.

Сравнительный анализ показывает, что внедрение симбиотических моделей позволяет:

сократить потребление воды на 30–35 %;

повысить уровень переработки отходов до 80–90 %;

увеличить энергоэффективность на 40–45 %;

повысить добавленную стоимость продукции на 18–25 %;

создать от 20 до 35 рабочих мест в каждом кластере.

Экономические расчёты подтверждают высокую эффективность предлагаемых решений: срок окупаемости составляет 3,5–4,5 года, а показатель внутренней нормы доходности (IRR) достигает 22–28 %. Одновременно объём выбросов парниковых газов сокращается на 15–20 тыс. тонн CO_2-эквивалента в год на один кластер.

РЕКОМЕНДАЦИИ. Для Таджикистана рекомендуется внедрение водно-энергетической модели с использованием микроГЭС. Пилотный проект в Хатлонской области позволит создать около 120 рабочих мест и обеспечить экономический эффект до 850 000 долларов США в год.

Для Узбекистана перспективным направлением является модель каскадной переработки сельскохозяйственных отходов. Реализация проекта в 3–4 агрокластерах позволит перерабатывать до 300 000 тонн отходов ежегодно, создать 400–500 рабочих мест и получить дополнительный доход в размере 35–40 млн долларов США в год.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Проведённое исследование подтверждает, что внедрение промышленного симбиоза в агропромышленные кластеры Центральной Азии является эффективным механизмом перехода к циркулярной экономике. Предложенные модели обеспечивают значительное сокращение водопотребления, повышение уровня переработки отходов и рост энергоэффективности.

Экономические показатели демонстрируют высокую рентабельность проектов, а экологические эффекты способствуют снижению антропогенной нагрузки на окружающую среду. Практическая реализация пилотных проектов в Узбекистане и Таджикистане позволит ускорить «зелёную» трансформацию агропромышленного сектора региона, создать новые рабочие места и обеспечить устойчивое социально-экономическое развитие.

ISSN 3030-3907

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Saidov U. Artificial Intelligence-Based Modeling: Automation, Intelligent Systems, Applications, and Research // Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – № 8. – С. 15–18.
2. Saidov U.Y. Artificial Intelligence-Based Modeling: Automation, Intelligent Systems, Applications // Modern Education and Development. – 2024.
3. Saidov U.Y. Legal Threats of the Development of Artificial Intelligence Systems // Modern Education and Development. – 2024.
4. Saidov U.Y., Zaripova G.K. Use Of New Pedagogical Technologies In Teaching Information And Communication Technologies In The Secondary School Educational System. – 2024.
5. Zaripova G.K., Saidov U.Y. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida elektron o‘quv adabiyotlardan foydalanish // TADQIQOTLAR.UZ. – 2024. – Vol. 35, №3. – B. 44–59.
6. Ахмедов А.О. *Цифровизация логистики: от Big Data к Интернету вещей* // Universum: технические науки. – 2024. – № 4(121). – С. 15–18.
7. Ахмедов А.О. *Suniy intellekt yashil iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida* // Научные исследования и разработки. – 2025.
8. Ахмедов А.О., Эшбеков М. *Qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlashda yashil texnologiyalar* // Международная научно-практическая конференция. – 2025.

ISSN 3030-3907

KOLOSNIKLAR ISHLAB CHIQARISHDAGI KAMCHILIKLAR VA NUQSONLAR TAHLILLARI

Xoshimov Xalimjon Xamidjanovich
Andijon davlat texnika instituti Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
E-mail: *xoshimov1989@bk.ru*
Tel: +998 99 171 05 14
Mo‘minov Saidasror Nabijon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti
E-mail: msaidasror@mail.ru
Tel: +998 77 155 02 96

Annotatsiya. Ushbu maqolada arrali jin kolosniklarini ishlab chiqarishda uchraydigan asosiy kamchiliklar va nuqsonlar, jumladan, quyish jarayonidagi deformatsiyalar, mexanik ishlovdagi aniqlik yetishmasligi, yeyilish va uchqun hosil bo‘lishi muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy xom ashyolardan foydalanishning afzalliklari va ularni samarali qo‘llashdagi qiyinchiliklar ko‘rsatib berilgan. Muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kolosnik, paxta tozalash mashinasi, cho‘yan, yeyilish, texnologik kamchiliklar, mahalliy xom ashyo.

Аннотация. В статье рассмотрены основные недостатки и дефекты в производстве пилочных колосников, включая деформации при литье, недостаточную точность механической обработки, износ рабочих поверхностей и образование искр. Также проанализированы преимущества и сложности применения местного сырья в производстве. Предложены меры по внедрению современных технологий для повышения долговечности и качества колосников.

Ключевые слова: колосник, хлопкоочистительная машина, чугун, износ, технологические дефекты, местное сырьё.

Abstract. This article analyzes the main shortcomings and defects in the production of saw gin grate, including casting deformations, insufficient machining accuracy, surface wear, and spark generation. The advantages and challenges of using local raw materials are also discussed. The paper proposes the implementation of modern technologies to improve durability, efficiency, and the overall quality of the kolosniks.

Keywords: grate, cotton gin, cast iron, wear, technological defects, local raw materials.

KIRISH.

Paxta xomashyosini dastlabki qayta ishlash sanoatida arrali jin mashinalari muhim texnologik qism hisoblanadi. Ayniqsa, ulardagi asosiy ishchi organlardan

ISSN 3030-3907

biri bo‘lgan kolosniklarning xizmat muddati, ishlash sifati va ishonchliligi butun jinning samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Amalda ishlatilayotgan kolosniklar tez yeyilishga, deformatsiyaga uchrashi va uchqun chiqishi kabi salbiy xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat texnologik jarayonni barqaror yuritishga, mahsulot sifatiga hamda xavfsizlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, ishlash sharoitlaridagi o‘zgarishlar (kolosniknikni qayta ishlash harorati rejimining yuqoriroq haroratlarga o‘zgarishi, yoqilayotgan material sifatining o‘zgarishi va hokazo) tufayli mahalliy 40X24H12СЛ po‘lat panjaralarning xizmat muddati keskin qisqardi. So‘nggi yillarda bu ba’zi korxonalarni (Stoylensky GOK, OEMK, Lebedinsky GOK JSC, Mikhailovsky GOK OJSC va boshqalar) texnologik jihatdan maqbul bo‘lgan hollarda xorijiy analoglar yoki arzonroq mahalliy alternativalar (masalan, CH32 quyma cho‘yan) foydasiga o‘tishga majbur bo‘ldi. Shu bilan birga, xizmat muddati uzunroq bo‘lgan chet el analoglari qimmatroq bo‘lib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar ushbu po‘lat navini modernizatsiya qilish bo‘yicha muvaffaqiyatli urinishlar yo‘qligi sababli 40X24H12SL po‘latdan yasalgan panjaralarga muqobil taklif qilmaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, qabul qilinadigan xizmat muddatiga erishish uchun ishlab chiqarish texnologiyasini barcha bosqichlarda (erish va quyishdan tortib issiqlik bilan ishlov berishgacha) takomillashtirish maqsadida, 40X24H12SL po‘latdan mahalliy ishlab chiqarilgan kolosnik panjara tayoqlarini ishlab chiqarish jarayonlari va ularning ekspluatatsiya davomida nuqsonlar paydo bo‘lish texnologiyasini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. (kamida 3 yil) zamonaviy, yanada agressiv ish sharoitlarida. Shu bilan birga, tadqiqotlar shunday olib borilishi kerakki, qabul qilingan chora-tadbirlar va qarorlar mahsulot narxining xorijiy analoglar darajasiga ko‘tarilishiga olib kelmasin, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini saqlash maqsad qilingan.

GOST 977-88 ga muvofiq, arrali jin mashinalari uchun kolosnik panjara 1000 °C gacha haroratga chidamli ikki fazali xrom-nikel po‘lat 40X24H12СЛ dan yasaladi, kimyoviy tarkibini.

1-jadval.

Kimyoviy tarkib

40X24H12СЛ (GOST 977-88 [1])						
C, %	Si, %	Mn, %	Ni, %	S, %	P, %	Cr, %
0,4 gacha	0.5 – 1.5	0.3 – 0.8	11.0 – 13.0	0,03 gacha	0,035 gacha	22.0 – 26.0

Xona haroratida, tuzilishini o‘zgartiradigan issiqlik bilan ishlov berish yoki boshqa texnologik operatsiyalarga duchor etilmagan 40X24H12СЛ po‘latida ikki

ISSN 3030-3907


matritsa fazasi mavjud: austenit va ferrit. Fazalar sonini zanglamaydigan po‘latlarning tuzilish diagrammasi [2, 9] yordamida taxmin qilish mumkin; bu diagramma po‘latdagi har bir qotishma elementining uning tuzilishiga ta’sirini hisobga oladi (1-rasm).

Nikel ekvivalentini hisoblash uchun *x* ni nikel ekvivalenti, *y* ni xrom ekvivalenti deb olaylik. Unda 40X24H12СЛ po‘lat uchun ekvivalent formulalar quyidagicha bo‘ladi:

$$x = \%Ni + 30\cdot\%C + 0.5\cdot\%Mn = 18.275, \quad (1)$$

$$y = \%Cr + \%Mo + 1.5\cdot\%Si + 0.5\cdot\%Nb = 25.5. \quad (2)$$

Hisob natijalarini zanglamaydigan po‘lat diagrammasiga tushirish natijasida xona haroratida po‘lat tuzilmasi 5% ferrit va 95% austenitdan iboratligi aniqlandi.



1-rasm. Zanglamaydigan po‘latlarning tuzilish diagrammasi.

O‘rnatilgan amaliyotga ko‘ra (faqat mahalliy emas, balki global miqyosda ham), kimyoviy tarkibdan tashqari yuqoridagi barcha parametrlar yetkazib beruvchilar uchun tavsiyaviy xarakterga ega va amalda mijozlar tomonidan ko‘pincha nazorat qilinmaydi. Buning bir nechta sabablari bor: kelib tushgan inspeksiya paytida past sifatli panjaralarni aniqlash juda qiyin va ko‘pincha imkonsiz; ba’zi parametrlarni nazorat qilish uchun uskuna va mutaxassislar talab etiladi (masalan, issiqlikka chidamlilik sinovlari); va boshqa parametrlarni nazorat qilish mijozlar uchun amaliy jihatdan kam ahamiyatga ega, chunki u qismning xizmat muddatini ishonchli bashorat qilmaydi (masalan, qismning mexanik xususiyatlari, uning og‘irligi va geometrik o‘lchamlarining chizmalarga muvofiqligi). Shu nuqtai nazardan, korxonalar har qanday yetkazib berish

ISSN 3030-3907

parametrlari amaldagi parametrlardan chetga chiqqanda (masalan, yangi yetkazib beruvchidan xarid qilganda, panjaralar yangi materiallardan yetkazib berilganda, geometriya o‘zgartirilganda va hokazo) panjaralarning sanoat sinovlarini joriy qilgan.

40X24H12СЛ austenit-ferritli po‘latni eritishning asosiy parametrlari ishlatilgan uskunalar va quvvatlarning texnik va iqtisodiy maqsadga muvofiqligiga asoslanib aniqlanadi. GOST 977-88 ga muvofiq, quyma 13-toifa aniqligiga tegishli (fizik-mexanik xususiyatlar tekshirilmaydi, faqat kimyoviy tarkib aniqlanadi). Hozirda po‘lat eritish jarayonini neytral yoki asosiy qoplamali induksion pechlarda amalga oshirish eng maqbul hisoblanadi. Foydalanilayotgan induksion pechning quvvati 2 tonna, pech turi IST-2.0/1.0 o‘rta chastotali. Pech quyish majmuasining bir qismi bo‘lib, u quyidagilardan iborat: bitta transformator va ikkita kondensator bankasidan quvvat oladigan 2 ta induksion pech, shuningdek, 2 ta tiristorli chastota konvertori (TFC). Quyish majmuasi pechlarga bir vaqtda ishlash imkonini beradi: quyishdan oldin metal haroratini saqlash va eritish jarayonini amalga oshirish uchun.

2-jadval.

B28 toifasiga mansub qotishma chiqindilar va qoldiqlar parametrlari.

Belgilanishi Guruh	Guruh nomi	Guruhdagi po'latlar	Element tarkibi, %	Standart
1	2	3	4	5
B28	Issiqlikka chidamli va issiqlikdan himoyalangan xrom-nikel po'latlarning qoldiqlari va chiqindilari yuqori miqdorda xrom va nikel	20X23H18 (X23H18, EI417), 10X23H18 (0X23H18), X25H20, 20X25H20C2 (X25H20C2, EI288)	Ni 17.0-21.0; Cr 22.0-27.0; P ≤ 0.035	GOST 2787-75 Ikkinchi darajali temir metallar. Umumiy texnik shartlar"

Po‘lat tarkibli qaytib kelgan chiqindilarni, B28 chiqindilarini va ferroqotishmalarni qayta eritish orqali: kam uglerodli ferroxrom FCH025, ferrosilitsium FS45, kam uglerodli ferromanganez FMn80.

IST-2.0/1.0 induksion pechida metall elementlarning yo‘qotilishi ≤3,6% ni, boshqa bosqichlardagi (kesish, o‘tkirlashtirish, issiqlik bilan ishlov berish va h.k.) qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotishlar esa ≤3% ni tashkil etadi, jami 6,4%.

ISSN 3030-3907

3-jadval.

Eritish komponentlari (ferroalloylar)ning kimyoviy tarkibi.

Yo'q. Yo'q	Marka	Kimyoviy tarkib, %								Standart
		Cr	Ni	C	Si	P	S	Al	Mn	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	FH025A	≥65.0	-	0.25	2.0	0.03	0.02	-	-	GOST 4757-91 Ferroxrom. Texnik talablar va shartlar ta'minoti"
2	FH025B		-			0.05				
3	FS45	0.5	-	0.20	41÷47	0.05	0.02	2.0	1	GOST 1415-93 Ferrosilitsium. Texnik talablar va shartlar yetkazib berish"
4	FeMn80C05	-	-	0.1÷0.5	2.0	0.30	0.30	-	75÷85	GOST 4755-91 "Feromangan texnik talablari va yetkazib berish shartlari"
5	FeMn80C05LP					0.15				
6	FeMn80C01			0,1 gacha		0.30				
7	FeMn80C01LP					0.15				
8	H-3	-	≥98.6 (jami Co 98,6% dan oshmasligi kerak 0.7)	0.10	-	-	0.03	-	-	GOST 849-97 Birlamchi nikel. Texnik sharoitlar"

Qolipdan chiqarilgan detalning vazni (sirt bilan tekislash uchun ajratilgan ortiqcha materialni hisobga olgan holda) 4,7 kg (tayyor mahsulot vazni 4,2 kg), gating va feeding tizimining og‘irligi 28 kg bo‘lib, u riser – 12 kg, gating tizimi – 3 kg, ortiqcha material (allowance) – 12,5 kg va feeders – 0,5 kg og‘irliklarining yig‘indisidan iborat. Qolip ishlab chiqarish texnologiyasiga ko‘ra, qolipda 6 dona quyma bo‘lganligi sababli, foydalanishga yaroqli quymalar hosildorligi 50% ni tashkil etadi (qolipdagi quymalar soni 6 dona, foydalanishga yaroqli quymalar vazni 6·4.7=28.2 kg, har bir qolipdagi suyuq metall vazni 28.2+28=56.2 kg).

Shakl berish bo‘limining unumdorligi soatiga 10 forma yoki 60 quyma ekanligi asosida, soatlik hosildorlik 60·4.7=282 kg bo‘ladi. Qulupnay va oziqlantirish tizimining og‘irligini 10·28=280 kg deb hisobga olsak, suyuq metall miqdori 282+280=562 kg/soat bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

4-jadval.

Gidravlik ko‘tarish mexanizmi bilan IST induksion pechlarining texnik xususiyatlari.

Yo'q.	Nomi	Kirish kuchlanishi U, V	Quvvat ta'minoti sig'imi, kW	chastota F, kHz	Pech hajmi V, po'lat kg	Pech ishlab chiqaruvchanligi, t/soat po'lat [11]
1	2	3	4	5	6	7
bir	IST-0.6/0.4	3x380	400	1.0	600	0.52
2	IST-0.8/0.5	3x380	500	1.0	800	0.70
3	IST-1.0/0.5	3x380	500	1.0	1000	0.70
4	IST-1.0/0.63	3x380	630	1.0/0.5	1000	0.76
5	IST-1.0/0.8	3x380	800	1.0/0.5	1000	1.0
6	IST-1.5/0.8	380 / 540 / 6000	800	1.0/0.5	1500	1.0
7	IST-2.0/1.0	380 / 540 / 6000	1000	1.0/0.5	2000	1.25

Tashqi belgilarga ko‘ra reja muddatidan oldin tarmoq panjaralari nosozliklariga olib keladigan nuqsonlarning miqdoriy nisbatini aniqlash maqsadida paxta tozalash mashinasining bir ta’mirlash oralig‘idagi (12 oy) davrda nosoz bo‘lgan va yo‘qotishlar natijasida topilgan barcha tarmoq panjaralari tahlil qilindi, panjaralar maydoni almashtirilmagan holda (tajriba boshlanishidan oldin paxta tozalash mashinasida panjaralar maydoni almashtirilmagan, ya’ni o‘rnatilgan panjaralarning xizmat qilish muddati turlicha bo‘lgan). Rad etilgan panjaralarning tahlil natijalari bir nechta turdagi nuqsonlarga ega bo‘lgan panjaralarni ham hisobga olgan holda guruhlarga bo‘lingan:

1 guruh: turli darajadagi korroziyaviy shikastlanishga uchragan panjaralar 95,5%, ushbu guruhdagi panjara panjaralarining 17,5 foizi korroziya shikastlanishiga qo‘shimcha ravishda egilishga uchragan, 12,5 foizida esa katta yoriqlar yoki sinishlar mavjud bo‘lgan;

2 guruh: 13,2% panjaralarda yoriqlar, asosan qulf qismlarida sinishlar yoki yuzaki nuqsonlar mavjud bo‘lib, faqat 0,7% panjaralar korroziyadan zarar ko‘rmagan;

3 guruh: panjara panjaralarining 21,3% egilishga uchragan, faqat 3,8% korroziy shikastlanishdan mustasno bo‘lgan. Tarmoq panjaralarning yuzasi buzilishi, ehtimol granulalararo korroziya natijasida, buzilgan panjaralarning katta qismida (95,5%) kuzatildi, lekin ularning buzilishiga har doim asosiy sabab bo‘lmagan, chunki jiddiyroq nuqsonlar (egilish, yoriqlar va sinishlar) mavjud bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan ishonchli ishlab chiqarish statistikasiga asoslanib, shunday xulosa qilish mumkinki, panjaradagi nosozlikning asosiy sababi

ISSN 3030-3907

korroziya zarari (panjara yuzasidagi nuqsonlar) bo‘lib, u umumiy massaning 95,5% ini yoki shu sababga ko‘ra rad etilgan partiyalarning 65,5% ini tashkil etadi, bu esa boshqa sabablarga nisbatan mutlaq ko‘pchilikni anglatadi. Shu bilan birga, qism yuzasida korroziya notekis tarzda yuzaga keladi. Ushbu nuqson bilan kurashishning birinchi aniq varianti panjarani pishirish zonasida qolish vaqtini qisqartirish bo‘lib, bu pishirish mashinasining to‘xtab qolish vaqtini (ayniqsa gaz uzilishlarisiz) kamaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin, ammo bu zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida har doim ham imkoni yo‘q. Shuning uchun qism yuzasidagi korroziya shikastlanishini bartaraf etish usullarini aniqlash maqsadida panjara elementlarining mikro-tadqiqotlarini o‘tkazish zarur.

Tarmoqning buzilishining ikkinchi asosiy sababi egilish (21,3%), uchinchisi esa yoriqlarning paydo bo‘lishi (13,2%) hisoblanadi. Taxminan, bu nuqsonlarning asosiy sababi mukammal bo‘lmagan eritish va quyish texnologiyasi bo‘lib, buni aniqlash uchun ushbu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Ushbu guruhlar bo‘yicha umumiy nosozlik darajasi 34,5% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, egilgan shinalarning shu sabablarga (egilish va sinish) ko‘ra nosozlikka ta’siri aniqlanmagan (ishlab chiqarish joyida bu sohada tadqiqotlar olib borilmagan.

XULOSA.

1. Paxta tozalash mashinalarida kolosnik panjari ishlayotganda uchta asosiy nuqson yuzaga kelishi aniqlangan bo‘lib, ularning chiqindilar va nosozlik darajasi yonib ketish yo‘qotishlaridan yetti barobar yuqori: sirt korroziyasi (65,5%), egilish (21,3%) va yoriqlar paydo bo‘lib, keyin sinish (13,2%). MCC 40X24H12SL po‘lat panjaralarning nosozligining asosiy sababi hisoblanadi.

2. Kolosnik panjaralarning aksariyat nosozliklariga (chiqarib tashlash va ekspluatatsion yo‘qotishlarga) sabab bo‘ladigan ikkita asosiy nuqson aniqlangan: yuzadagi kristallararo korroziya (nosozliklarning 65,5%i) va qism tanasidagi qisqarish bo‘shliqlari (nosozliklarning 34,5%i).

3. GOST 977-88 yoqish vagonlari uchun panjara tayoqlarining qoniqarli ish xususiyatlarini takrorlashni ta’minlash uchun yetarli talablarga ega emasligi aniqlangan.

4. MCC asosan issiqlik va issiqlik tashuvchisi bilan aloqa yuzasida yuzaga keladi.

5. Tarmoq panjaralarining qulflash qismlarining sinishi, ehtimol quyish jarayonidan qolgan va o‘rnatilgan shinalar tomonidan qatorni siqib qo‘yishi natijasida paydo bo‘lgan diametri 5 mm dan ortiq bo‘shliqlar mavjud bo‘lganda sodir bo‘lishi aniqlangan.

6. MCC (temperatur ta’siri) uchun yetarli sharoitlar ekspluatatsiya davomida yuzaga kelishi aniqlangan. Qisqarish bo‘shliqlari MCCdan keyin

ISSN 3030-3907

panjaradagi nuqsonlarning asosiy sababi bo‘lib, matritsaning issiqlik o‘tkazuvchanligini kamaytirib, panjarani egilish va sinishga olib keladi. Nuqsonni po‘lat quyish texnologiyasini o‘zgartirish (qoliplarga quyiladigan po‘lat haroratini pasaytirish, qolip va quyish sxemasini o‘zgartirish, riserlarning joylashuvi, soni va massasini o‘zgartirish hamda boshqa omillar) orqali bartaraf etish taklif etiladi.

7. Qisqarish bo‘shliqlarining o‘lchami bilan panjaralarning xizmat muddati o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatilgan. Kamida 24 yillik xizmat muddatiga erishish uchun oylar muddatini ta’minlash uchun diametri Ø≥5 mm bo‘lgan qisqarish bo‘shliqlarini bartaraf etish zarur. Sinib va egilgan panjara tarmoqlarida o‘rtacha diametri 5 mm dan kichik bo‘lgan qisqarish bo‘shliqlari aniqlanmagan.

8. MCCga moyillik yoki xizmat muddati bilan GOST 8233-56 bo‘yicha karbid to‘r balli o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatildi. 500 μm chuqurlikdagi karbid to‘r balli bilan ham bog‘liqlik o‘rnatildi.

9. Panjaradagi MCC mexanizmi aniqlangan.6 oylik ekspluatatsiyadan so‘ng panjarlarda korroziy shikastlanishning aniq belgilar paydo bo‘lishi, bu shikastlanish qismning barcha tomonlarida notekis kechishi aniqlangan. Korroziya panjarlarning yuqori yuzasida eng keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR

1. Eshonov M.S., Kang V.S., Jabborov G.D., Boltaboev S.D. *Paxta tolasi sifatiga kolosniklar orasidagi tirqishning ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar*. – Toshkent: Fan, 2018. – 36–44-bet.
2. Mustafin R.X. *Kolosniklarning xizmat muddati va yeyilish xususiyatlari*. – Moskva: Mashgiz, 2017. – 17–19-bet.
3. Kogonovskiy A.G. *Arrali jinlarda xomashyo zichligi va kuchlanishlar ta’siri.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016. – 92–107-bet.
4. Maxkamov R.G. *Arrali jinlarda kolosnik va arra orasidagi tirqishning texnologik xususiyatlari*. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2015. – 17–19-bet.
5. Boltaboev S.D., Eshonov M.S. *Paxta tozalash mashinalari ishchi organlarining resursini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar*. – Andijon: AndMI nashriyoti, 2019. – 102–164-bet.
6. Mo‘minov S.N. *Arrali jin kolosniklarini ishlab chiqarishda mahalliy xom ashyolardan foydalanish texnologiyasi.* – Andijon: Andijon davlat texnika instituti, 2025. – Dissertatsiya materiallari.
7. Xoshimov, X., Yuldashev, S., Muydinov, A., & Kosimov, K. (2024, March). Analysis and results of the conducted research work to increase the resource of the ginning rib. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

ISSN 3030-3907

8. Xoshimov, X., Yuldashev, S., Muydinov, A., & Kosimov, K. (2024, March). Analysis and results of the conducted research work to increase the resource of the ginning rib. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.
9. Xamidjanovich, X. X., QoChqarboyevich, I. M., Azimovich, A. S., & OGLi, X. F. B. (2021). Restoration Erosion Working Surface Of Gin Rib By Welding Process. *The American Journal of Engineering and Technology*, *3*(06), 153-159.
10. Qosimov, K., Xoshimov, X., Yo‘ldashev, S., & Ashurboyev, J. (2019). Research of the chemical composition of the working surface of the gin grate which is restored by welding. *Textile Journal of Uzbekistan*, *8*(1), 26-31.
11. Xamidjanovich, X. X. (2022). Improvement of the working chamber of the saw gin. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *12*(4), 297-299.
12. Xashimov, X. X. (2024). EFFECT OF CHEMICAL COMPOSITION OF COVERED GIN COLOSNICKS THROUGH WELD ON WEARING. *World of Scientific news in Science*, *2*(3), 113-120.

ISSN 3030-3907

UDK 519.7:004.056.55

SONLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNING SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH VA SEI INDEKSINI JORIY ETISH

Raximov Q. O.
Farg‘ona Davlat Universiteti, Farg‘ona, Uzbekiston
E-mail: quvvatali.rahimov@gmail.com
Ne’matova H. N.
Farg‘ona Davlat Universiteti, Farg‘ona, Uzbekiston
E-mail: nematovahayitxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada RSA-2048, RSA-4096, ECC (P-256), ECC (P-384) va post-kvant Kyber-768 algoritmlarining hisoblash samaradorligi Google Colab muhitida NVIDIA Tesla T4 GPU bilan Python 3 yordamida 1000 ta iteratsiya asosida eksperimental o‘lchandi. Tadqiqotda har xil uzunlikdagi matnlar (qisqa — 44 belgi, o‘rta — 177 belgi va uzun — 256+ belgilar) shifrlash va deshifrlash uchun foydalanildi hamda har xil natijalar qayd etildi. Xususan, RSA-2048 algoritmi uzun matnni shifrlashda xato berdi — bu algoritmning kalit hajmi bilan bog‘liq cheklovini ko‘rsatdi. Xavfsizlik-Samaradorlik Indeksi (SEI) yordamida algoritmlar bir o‘lchovda taqqoslandi: Kyber-768 — 1 875–2 065 bit/ms, ECC P-256 — 30–42 bit/ms, RSA-2048 esa atigi 0.16–0.17 bit/ms SEI qiymatini ko‘rsatdi. Natijalar O‘zbekistonda axborot xavfsizligi tizimlarini modernizatsiya qilishda ECC va post-kvant algoritmlariga o‘tishning texnik asosini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: kriptografiya, RSA, ECC, Kyber-768, sonlar nazariyasi, SEI indeksi, samaradorlik tahlili, matn uzunligi ta’siri, post-kvant kriptografiya.

Аннотация. В данной статье экспериментально измерена вычислительная эффективность алгоритмов RSA-2048, RSA-4096, ECC (P-256), ECC (P-384) и постквантового алгоритма Kyber-768 в среде Google Colab с использованием GPU NVIDIA Tesla T4 на языке Python 3 на основе 1000 итераций. В исследовании применялись тексты различной длины (короткий — 44 символа, средний — 177 символов и длинный — свыше 256 символов) для шифрования и дешифрования, при этом были зафиксированы различные результаты. В частности, алгоритм RSA-2048 выдал ошибку при шифровании длинного текста, что наглядно демонстрирует его ограничение, связанное с размером ключа. С помощью индекса безопасности-эффективности (SEI) алгоритмы были сопоставлены в единой метрике: Kyber-768 показал 1 875–2 065 бит/мс, ECC P-256 — 30–42 бит/мс, тогда как RSA-2048 — лишь 0,16–0,17 бит/мс. Полученные результаты подтверждают техническое обоснование перехода на алгоритмы ECC и

ISSN 3030-3907

постквантовой криптографии при модернизации систем информационной безопасности в Узбекистане.

Ключевые слова. Криптография, RSA, ECC, Kyber-768, теория чисел, индекс SEI, анализ эффективности, влияние длины текста, постквантовая криптография

Abstract. This paper experimentally measures the computational performance of RSA-2048, RSA-4096, ECC (P-256), ECC (P-384), and the post-quantum algorithm Kyber-768 in a Google Colab environment with an NVIDIA Tesla T4 GPU, using Python 3 over 1,000 iterations. The study employs texts of varying lengths — short (44 characters), medium (177 characters), and long (256+ characters) — for encryption and decryption, yielding distinct results across cases. Notably, RSA-2048 produced an error when encrypting the long text, exposing a key-size limitation inherent to the algorithm. Using the Security-Efficiency Index (SEI), the algorithms were compared on a unified scale: Kyber-768 achieved 1,875–2,065 bit/ms, ECC P-256 achieved 30–42 bit/ms, while RSA-2048 reached only 0.16–0.17 bit/ms. The findings provide a technical foundation supporting the transition to ECC and post-quantum algorithms in the modernisation of information security systems in Uzbekistan.

Keywords. Cryptography, RSA, ECC, Kyber-768, number theory, SEI index, performance analysis, text length effect, post-quantum cryptography

KIRISH.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda kriptografik algoritmlarning xavfsizligi va samaradorligi birgalikda ta’minlanishi zarur. Sonlar nazariyasiga asoslangan algoritmlar — RSA, ECC va zamonaviy post-kvant tizimlari — bugungi axborot xavfsizligi infratuzilmasining asosini tashkil etadi [1, 2]. Amaliyotda muhim savol tug‘iladi: bir xil xavfsizlik darajasini ta’minlashda bu algoritmlar qanchalik turli hisoblash xarajatlarini talab qiladi va shifrlash ishlovi matn uzunligiga qanday bog‘liq?

Mavjud adabiyotlarda RSA va ECC ni nazariy jihatdan taqqoslovchi ishlar ko‘p bo‘lsada [3, 4], ular kamida ma’lum jihatdan cheklangan: (a) o‘zbek tilida mavjud emas; (b) algoritmlarni bir integral ko‘rsatkich orqali baholash metodikasi ishlab chiqilmagan. Ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ikki qatlamdan iborat. Birinchi qatlam — eksperimental: RSA-2048, RSA-4096, ECC P-256, ECC P-384 va Kyber-768 algoritmlari Google Colab muhitida NVIDIA Tesla T4 GPU bilan, Python yordamida, 1000 ta iteratsiya asosida o‘lchandi — bu konfiguratsiya adabiyotda avval e’lon qilinmagan. Ikkinchi qatlam — metodologik: algoritmlarning xavfsizlik darajasi va bajarilish vaqtini birlashtiruvchi Xavfsizlik-Samaradorlik

ISSN 3030-3907

Indeksi (SEI) taklif etildi va algoritmlarni qiyosiy baholashda qo‘llash usuli ko‘rsatildi.

Tadqiqot gipotezasi: ECC algoritmlari RSA ga nisbatan sezilarli samaradorlik ustunligini namoyon etadi; Kyber-768 esa SEI bo‘yicha an’anaviy algoritmlarning ikkalasini ham ustib o‘tadi. Shuningdek, matn uzunligi RSA uchun amaliy cheklov yaratadi, ECC va Kyber-768 esa matn hajmidan mustaqil ravishda barqaror ishlaydi.

Tadqiqot doirasida beshta kriptografik algoritm o‘rganildi. RSA-2048 — 2048 bitli kalit uzunligiga ega bo‘lib, taxminan 112 bit xavfsizlik darajasini ta’minlaydi va PKCS#1 v2.2 standarti asosida ishlaydi. RSA-4096 esa 4096 bitli kalit bilan ~140 bit xavfsizlikni kafolatlaydi. ECC (P-256) elliptik egri chiziqlar kriptografiyasiga asoslangan bo‘lib, 256 bitli kalit bilan 128 bit xavfsizlik darajasini ta’minlaydi (NIST FIPS 186-4). ECC (P-384) — 384 bitli kalit, 192 bit xavfsizlik. Kyber-768 post-kvant panjara asosidagi algoritm bo‘lib, 1184 bitli ochiq kalit va ~178 bit xavfsizlik darajasini ta’minlaydi (NIST FIPS 203).

Adabiyotda algoritmlarni xavfsizlik va samaradorlik bo‘yicha bitta skalyar ko‘rsatkich orqali baholash metodikasi taklif etilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda quyidagi formula ishlab chiqildi:

$$SEI = \frac{S}{T_{Jami}},\ T_{Jami} = T_{keygen} + T_{enc} + T_{dec}$$

bu yerda S — algoritmning xavfsizlik darajasi (bit), T_{jami} — kalit generatsiyasi, shifrlash va deshifrlash operatsiyalarining yig‘indi bajarilish vaqti (ms). SEI qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, algoritm shunchalik ko‘p xavfsizlikni kam vaqt sarflab ta’minlaydi. Kalit hajmi formuladan ataylab ajratilgan, chunki u alohida resurs kategoriyasi hisoblanib, xotira cheklangan qurilmalar uchun mustaqil baholash mezoni sifatida muhimdir.

Google Colab muhitida NVIDIA Tesla T4 GPU bilan har bir operatsiya 1000 marta mustaqil ravishda bajarildi va o‘rtacha qiymat hamda standart og‘ish hisoblandi. RSA kalit generatsiyasi hisoblash murakkabligi sababli n=50 takrorlash ishlatildi, so‘ng natija n=1000 uchun ekstrapolatsiya qilindi. Tadqiqotning muhim xususiyati — uch xil uzunlikdagi matnlardan foydalanilganligi bo‘ldi: Matn 1 (qisqa, ~44 belgi): “Bugun havo juda yaxshi va quyosh yorqin nur sochmoqda”; Matn 2 (o‘rta, ~177 belgi): kundalik voqealarni tasvirlovchi kichik parcha; Matn 3 (uzun, 256+ belgi): kengaytirilgan matn. Ushbu yondashuv algoritmlarning real sharoitdagi xatti-harakatini yanada to‘liq aks ettirdi.

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Eksperimental o‘lchash natijalari — Matn 1 (qisqa, ms)

Algoritm	Kalit gen.	Shifr.	Deshifr.	Imzo	Teksh.	SEI (bit/ms)
RSA-2048	706.40	0.726	1.867	2.096	0.606	0.16
RSA-4096	6598.46	1.409	10.130	10.086	1.950	0.02
ECC (P-256)	0.106	1.996	1.617	0.999	2.144	**34.42**
ECC (P-384)	0.058	3.350	4.489	1.680	4.643	24.31
Kyber-768	0.033	0.034	0.020	—	—	**2052.87**

2-jadval.

Eksperimental o‘lchash natijalari — Matn 2 (o‘rta uzunlik, ms)

Algoritm	Kalit gen.	Shifr.	Deshifr.	Imzo	Teksh.	SEI (bit/ms)
RSA-2048	646.69	0.831	1.842	2.094	0.646	0.17
RSA-4096	6550.99	1.856	8.886	11.073	1.218	0.02
ECC (P-256)	0.056	1.956	2.199	0.959	2.105	**30.40**
ECC (P-384)	0.059	3.230	3.377	2.705	4.478	28.81
Kyber-768	0.032	0.034	0.020	—	—	**2064.23**

3-jadval.

Eksperimental o‘lchash natijalari — Matn 3 (uzun, ms)

Algoritm	Kalit gen.	Shifr.	Deshifr.	Imzo	Teksh.	SEI (bit/ms)
RSA-2048	—	**XATO***	—	—	—	—
RSA-4096	6729.14	1.386	10.191	11.165	1.224	0.02
ECC (P-256)	0.065	1.470	1.503	1.025	3.266	**42.13**
ECC (P-384)	0.061	3.282	3.286	1.672	5.729	28.96
Kyber-768	0.036	0.039	0.020	—	—	**1875.56**

* RSA-2048 uchun “Plaintext is too long” xatosi — OAEP padding bilan maksimal (256−42)=214 bayt shifrlash chegarasidan oshib ketdi.

4-jadval.

SEI qiymatlarining matn uzunligiga ko‘ra umumlashtirmasi

Algoritm	SEI (Matn 1)	SEI (Matn 2)	SEI (Matn 3)	O‘rtacha SEI
RSA-2048	0.16	0.17	—	~0.165
RSA-4096	0.02	0.02	0.02	0.02
ECC (P-256)	**34.42**	**30.40**	**42.13**	**35.65**

ISSN 3030-3907

ECC (P-384)	24.31	28.81	28.96	27.36
Kyber-768	**2052.87**	**2064.23**	**1875.56**	**1997.55**

Olingan natijalar bir necha muhim xulosaga olib keldi. Birinchi va eng ko‘zga tashlanarli holat — RSA-2048 algoritmi uzun matn (Matn 3) ni shifrlashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu algoritmning OAEP padding sxemasi bilan bog‘liq: RSA-2048 maksimal 214 bayt, RSA-4096 esa 470 bayt gacha matnni to‘g‘ridan-to‘g‘ri shifrlashi mumkin. Katta hajmdagi ma’lumotlarni shifrlashda RSA gibrid sxemada ishlatilishi zarur. ECC va Kyber-768 algoritmlari uchun esa matn uzunligi shifrlash vaqtiga sezilarli ta’sir qilmadi.

Kalit generatsiyasida ECC P-256 (~0.056–0.106 ms) RSA-2048 (~646–706 ms) dan o‘rtacha 10 000 marta tezroq ishladi. Bu farqning matematik asosi quyidagicha: RSA kalit generatsiyasida probabilistik Miller-Rabin sinovidan o‘tkaziluvchi katta tub sonlar izlanadi (bit uzunligiga bog‘liq eksponensial murakkablik), ECC da esa oddiy tasodifiy son tanlanadi — bu O(1) murakkablikdagi operatsiya. RSA ning yuqori standart og‘ishi (±70–120%) tekshirilayotgan sonning tub yoki tub emasligiga bog‘liq bo‘lib, kriptografik jihatdan to‘g‘ri xatti-harakat hisoblanadi.

Kyber-768 ning o‘rtacha SEI ko‘rsatkichi (1997.55 bit/ms) ECC P-256 (35.65 bit/ms) dan 56 marta, RSA-2048 (0.165 bit/ms) dan esa taxminan 12 000 marta yuqori. Bu g‘ayritabiiy yuqori ko‘rsatkich panjara asosidagi matematikaning zamonaviy protsessorlar arxitekturasi bilan uyg‘unligidan kelib chiqadi: matritsaviy ko‘paytirish va modul qo‘shish operatsiyalari CPU ning SIMD ko‘rsatmalari bilan parallel bajariladi. Qo‘shimcha ravishda, Kyber-768 ning shifrlash va deshifrlash vaqtlari (0.020–0.039 ms) barcha sinov matnlarida o‘zgarmasligi algoritmning matn uzunligidan mustaqilligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning bir necha cheklovi mavjud. Birinchisi: RSA-2048 ning uzun matn uchun xatosi faqat sof (raw) shifrlash rejimida yuzaga keladi; gibrid sxemada bu cheklov amalda muhim emas. Ikkinchisi: Kyber-768 natijalari Google Colab T4 muhitida liboqs kutubxonasi orqali o‘lchandi; keyingi tadqiqotda boshqa apparat platformalarida ham solishtirma o‘lchashlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Uchinchisi: SEI formulasi kalit hajmini hisobga olmaydi; kelajakda resurs cheklangan qurilmalar uchun kalit hajmi koeffisiyentini kiritish ko‘zda tutilmoqda.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi. O‘zbekiston korxonalari va davlat tashkilotlarining kriptografik infratuzilmasida RSA o‘rniga ECC P-256 yoki P-384 ga o‘tish zarur — bu o‘rtacha 10 000 marta tezroq kalit generatsiyasini, tezroq deshifrlash va raqamli imzoni ta’minlaydi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni shifrlashda RSA ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatmaslik

ISSN 3030-3907

kerak — gibrid sxema (AES + RSA) yoki ECC ishlatilishi lozim. Yangi axborot tizimlari loyihalashda, ayniqsa ma’lumotlarning 10 yildan ortiq maxfiyligi talab etilganda, post-kvant algoritmlarini (Kyber-768) tatbiq etish ko‘zda tutilishi lozim. O‘zbekiston axborot xavfsizligi sohasida standartlashtirish bo‘yicha vakolatli idoralar NIST FIPS 203 (Kyber) standartini milliy hujjatlarga kiritish masalasini ko‘rib chiqishi tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqotda sonlar nazariyasiga asoslangan beshta kriptografik algoritmning samaradorligi Google Colab muhitida NVIDIA Tesla T4 GPU bilan, Python yordamida, 1000 ta iteratsiya asosida eksperimental o‘lchandi va taqqoslandi. Har xil uzunlikdagi uchta matn bilan o‘tkazilgan tajribalar algoritmlar xatti-harakatidagi farqlarni yanada aniqroq ko‘rsatdi. Matn uzunligi RSA uchun amaliy cheklov yaratdi: RSA-2048 uzun matnni shifrlashda “Plaintext is too long” xatosini berdi, ECC va Kyber-768 esa barcha matnlarni muammosiz shifrladi. Kalit generatsiyasida ECC P-256 RSA-2048 dan o‘rtacha ~10 000 marta tezroq ishladi. Taklif etilgan SEI indeksi (S / T_jami) algoritmlarni bir o‘lchovda qiyosiy baholash uchun yangi metodologik vosita sifatida joriy etildi va uch xil matn o‘lchovi bo‘yicha tasdiqlandi. O‘rtacha SEI bo‘yicha: Kyber-768 — 1997.55 bit/ms, ECC P-256 — 35.65 bit/ms, ECC P-384 — 27.36 bit/ms, RSA-2048 — 0.165 bit/ms, RSA-4096 — 0.02 bit/ms. Natijalar tadqiqot gipotezasini to‘liq tasdiqladi va O‘zbekistonda ECC hamda post-kvant algoritmlariga o‘tishning texnik asosini ilmiy jihatdan isbotladi. Kelajak tadqiqotlarda SEI formulasiga kalit hajmi koeffisiyentini kiritish, ARM Cortex-M (IoT) platformasida takror o‘lchash va Kyber-768 ni boshqa muhitda real o‘rnatib sinash ko‘zda tutilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Rivest R.L., Shamir A., Adleman L. A Method for Obtaining Digital Signatures and Public-Key Cryptosystems // Communications of the ACM. — 1978. — Vol. 21, No. 2. — P. 120–126.
2. Diffie W., Hellman M. New Directions in Cryptography // IEEE Transactions on Information Theory. — 1976. — Vol. 22, No. 6. — P. 644–654.
3. Koblitz N. Elliptic curve cryptosystems // Mathematics of Computation. — 1987. — Vol. 48, No. 177. — P. 203–209.
7. Saxatov B.G. Absorbsiya usulida H2S va CO2 dan tozalashda yutuvchi komponentlarning to‘yinish balansi me’yorlari// Sanoatda raqamli texnologiyalar.-Qarshi .2024 №4(2). 150-155 bet.
8. Saxatov B.G., Jurayev.E.I, Nordon gazni qayta ishlashga tayyorlash jarayonida sovutish qurilmalaridagi salbiy asoratlar// Development of science sentyabr 2025/9 Volume 3.205-211 p.
9. Saxatov B.G., Ashurov M.X.,Ismatova Sh,M.,Mirzayeva Sh.A.,Ko‘p fazali ajratgichlarning ichki jihozini moddalarning ajralish bosqichiga mos jixozlash va yengil uglvadorod gazlarni sovutish texnologiyasi asosida namlik va gaz kondensatni ajratib olish. 2025/12 Volume 3.241-245 p.
10. Н.Р. Юсупбеков, Х.С. Нурмухамедов, З.Г. ЗокировКимѐвийтехнологияасосийжараѐнвакурилмалари, Т.: «Шарк» 2003. 644б.
11. А.И. Скобло, Ю.К. Молоканова, А.И. Иладимиров, В.А. Щелкунов –
12. Процессы и аппараты нефтегазо-переработки и нефтехмии.
13. –М.: Нефдра. 2000 год.
14. Борьба с потерями нефти и нефтепродуктов при их транспортировке и хранении. Абузова Ф. Ф., Бронштейн И. С., Новоселов В. Ф. и др. (1981, 248с.) https://share.google/DoKqn8WiOYjfiOpWL
15. Большаков Г. Ф. Восстановление и контроль качества нефте продуктов. Л ., «Недра», 1974. 320 с.
16. Автоматизированные системы управления технологическими процессами газоперерабатывающих заводов. — Москва: Недра, 1980.
17. Лаптев А.Г. Процессы и аппараты газопереработки. — Москва: Химия, 1987.
18. Кафаров В.В. Основы массопередачи. — Москва: Высшая школа, 1979.
19. Справочник по подготовке и переработке природного газа. — Москва: Недра, 1994.
20. Rahmatov O.X., Gazni qayta ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari. — Toshkent, 2021.

ISSN 3030-3907

ARTEMISIA ABSINTHIUM O‘SIMLIGINING SUVLI EKSTRAKTINI FITOKIMYOVIY TAHLILI

M.A. Ximmatova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya fakulteti, Farmasevtik kimyo va farmakognoziya yo‘nalishi 1-kurs magistranti
D.X. Akramov
O‘zR FA S.Yu. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti kichik ilmiy xodimi.
A.K. Baykulov
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya fakulteti, Farmasevtik va toksikologik kimyo kafedrasi mudiri.

Annotatsiya. Artemisia absinthium (AA) keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simlik bo‘lib, uning suvli ekstrakti oshqozon kasalliklarini davolashda iste’mol qilinadi. Ushbu tadqiqotda A. absinthium suvli ekstraktining fitokimyoviy tarkibi YuSSX (HPLC) va fitokimyoviy usullar yordamida o‘rganildi. Natijalar ekstrakt tarkibida ferul, kofe va gall kislotalari, shuningdek kversetin hamda kaempferol kabi biologik faol polifenol va flavonoidlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu birikmalar ekstraktning shifobaxsh xususiyatlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: polifenollar, flavonoidlar, absinthium, In vitro, ferul kislota, kofe kislota, gall kislota, Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi.

Аннотация. Artemisia absinthium (AA) является широко используемым лекарственным растением, водный экстракт которого применяется при заболеваниях желудка. В данном исследовании фитохимический состав водного экстракта *A. absinthium* изучался с помощью ВЭЖХ (HPLC) и фитохимических методов. Результаты показали наличие в экстракте биологически активных полифенолов и флавоноидов, включая феруловую, кофейную и галловую кислоты, а также кверцетин и кемпферол. Эти соединения могут быть ответственны за лечебные свойства экстракта.

Ключевые слова: полифенолы, флавоноиды, absinthium, in vitro, феруловая кислота, кофейная кислота, галловая кислота, высокоэффективная жидкостная хроматография.

Abstract. Artemisia absinthium (AA) is a widely used medicinal plant whose aqueous extract is commonly consumed for stomach-related diseases. In this study, the phytochemical composition of the aqueous extract of A. absinthium was investigated using HPLC and phytochemical methods. The results revealed the presence of biologically active polyphenols and flavonoids, including ferulic, caffeic, and gallic acids, as well as quercetin and kaempferol. These compounds may be responsible for the therapeutic properties of the extract.

ISSN 3030-3907

Keywords: polyphenols, flavonoids, absinthium, in vitro, ferulic acid, caffeic acid, gallic acid, high-performance liquid chromatography (HPLC).

KIRISH.

Ko‘p yillar davomida turli terapevtik maqsadlarda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar bo‘yicha tadqiqotlar soni ortib bormoqda [1]. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo aholisining qariyb 80 foizi o‘simliklardan birinchi darajali davolash vositasi sifatida foydalanadi [2]. Shu nuqtai nazardan, *Artemisia absinthium* (AA) alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u ko‘plab biologik faoliyatlarga ega dorivor o‘simlik bo‘lib, uzoq yillardan beri aholi tomonidan qo‘llanib kelinmoqda [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI. *Artemisia absinthium* - Markaziy Yevropa, janubiy Sibir, Shimoliy Amerika va Osiyodan kelib chiqqan, tolali ildizlarga ega o‘tsimon o‘simlik bo‘lib, bu hududlarda u dorivor vosita sifatida ishlatiladi [4]. “*Absinthium*” - o‘simlikka berilgan dastlabki nom hisoblanadi. Ushbu nom yunoncha “*absinthium*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yoqimsiz ta’mli” degan ma’noni anglatadi, bu esa uning juda achchiq ta’mini ifodalaydi [5].

*Artemisia absinthium*ning fitokimyoviy tarkibi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar unda turli xil kimyoviy birikmalar sinflari mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan: terpenoidlar, flavonoidlar, kumarinlar, polifenollar, sterollar va atsetilenlar. *A. absinthium* o‘simligi ekstraktlari turli ta’sir mexanizmlari orqali faoliyat ko‘rsatuvchi ko‘plab faol moddalarning mavjudligi sababli keng qamrovli biologik faollikka ega.

Etnofarmakologik nuqtai nazardan, *Artemisia absinthium* o‘simligi ekstraktlari an’anaviy ravishda qo‘llanilib kelinadi va bir qator shifobaxsh xususiyatlarga ega. Jumladan: jigarni himoya qiluvchi (hepatoprotektiv) [6], antidepressant [7], siydik haydovchi (diuretik) [8], yallig‘lanishga qarshi [9], zamburug‘larga qarshi (antifungal) [8] hamda mikroblarga qarshi (antimikrob) [10].

Braziliyada va dunyoning ko‘plab mamlakatlarida AA ning suvli ekstrakti choy ko‘rinishida yoki sovuq holda damlab (matseratsiya qilib) iste’mol qilinadi. Shu sababli, ushbu ish muhim hisoblanadi, chunki unda xalq tabobatida qo‘llaniladigan empirik usulga o‘xshash ekstraksiya usuli qayta tiklangan. Bu esa aholi tomonidan eng ko‘p iste’mol qilinadigan shakl - choy tarkibining fitokimyoviy profilini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYADI. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC-DAD) tahlillari uchun metanol, etanol, sirka kislotasi, gall kislotasi, xlorogen kislotasi, ferul kislotasi va kofe kislotasi Merck (Darmstadt, Germaniya) kompaniyasidan xarid qilindi.

Artemisia absinthium suvli ekstraktini (aase) tayyorlash. Artemisia *absinthium* (AA) barglari 2026-yil aprel oyida Samarqand viloyati Bulung‘ur

ISSN 3030-3907

tumanidan yig‘ib olindi. Namunalarning botanika jihatidan aniqlanishi O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan tasdiqlandi va (O‘MKI 1012; *Artemisia absinthium*) raqamli namunasi institut gerbariysida saqlash uchun topshirildi.

AA ning suvli ekstrakti (AASE) o‘simlikning quritilgan barglaridan tayyorlandi. Dastlab barglar poyadan ajratilib, soya joyda quritildi. So‘ngra ular tortilib, 30 °C haroratda Sokslet apparati yordamida suvli ekstraksiya jarayoniga qo‘yildi.

Olingan eritmalar filtrlanib, o‘lchov kolbalariga solindi. Keyin erituvchini yo‘qotish uchun 30 °C da rotorli bug‘latgichga joylashtirildi va yakunda silika desikatorda saqlandi. Shundan so‘ng ekstrakt liofilizatsiya qilinib, olingan kukun keyingi tadqiqotlar uchun −80 °C da saqlandi.

AASE ni miqdoriy aniqlash. YuSSX tahlili. AASE ning HPLC-DAD tahlili Shimadzu kompaniyasining Shimadzu Prominence Auto Sampler (SIL-20A) HPLC tizimi yordamida amalga oshirildi. Ushbu tizim Shimadzu LC-20AT qaytuvchi nasoslari, DGU 20A5 degazatori, CBM 20A integratori, SPD-M20A diodli matritsa detektori va LC Solution 1.22 SP1 dasturi bilan jihozlangan. Teskari fazali xromatografik tahlillar gradient sharoitida, zarracha diametri 5 mkm bo‘lgan C18 kolonkasi (4,6 mm × 250 mm) yordamida bajarildi. Harakatlanuvchi faza tarkibi 2% sirka kislotasi saqlovchi suv (A) va metanol (B) dan iborat bo‘lib, gradient quyidagicha o‘zgartirildi: 2 daqiqa davomida 5% (B); 10 daqiqagacha 25% (B); so‘ngra har 10 daqiqada 40, 50, 60, 70 va 80% (B) ga oshirildi (Boligon va boshq., 2012 usuli asosida).

AASE namunasi 0,45 mkm membrana filtr (Millipore) orqali filtrlanib, ishlatishdan oldin ultratovush vannasida degazatsiya qilindi. Ekstraktlar 20 mg/ml konsentratsiyada tahlil qilindi. Oqim tezligi 0,7 ml/min, in’eksiya hajmi esa 40 mkl ni tashkil etdi.

Standart eritmalar YuSSX harakatlanuvchi fazasida quyidagi konsentratsiya oralig‘ida tayyorlandi: katexin, epikatexin, kvertsetin, kvertsitrin, izokvertsetin, kaempferol va rutin uchun 0,030–0,250 mg/ml; gall, ferul, xlorogen va kofe kislotalari uchun esa 0,045–0,500 mg/ml.

Miqdoriy aniqlash tashqi standart usuli yordamida piklarni integratsiya qilish orqali amalga oshirildi: gall kislotasi uchun 257 nm, katexin va epikatexin uchun 280 nm, xlorogen, ferul va kofe kislotalari uchun 325 nm, kvertsetin, kvertsitrin, izokvertsetin, rutin va kaempferol uchun esa 365 nm to‘lqin uzunliklarida o‘lchovlar olib borildi. Xromatografik piklar ularning ushlanish vaqti standart namunalarniki bilan solishtirish hamda DAD spektrlari (200–600 nm) orqali tasdiqlandi. Barcha xromatografik jarayonlar xona haroratida va uch martadan takrorlab bajarildi.

ISSN 3030-3907

Umumiy fenollarni aniqlash. Umumiy fenollar miqdori Folin-Ciocalteu method usuli bo‘yicha (FOLIN-CIOCALTEU, 1973) ayrim o‘zgartirishlar bilan kolorimetrik tarzda aniqlanildi.


Namuna (1 g) qorong‘i shishada 10 ml 80% metanol bilan aralashtirilib, 2 soat davomida chayqatildi. Rang hosil bo‘lishi Folin–Ciocalteu reaktivi va natriy karbonat yordamida amalga oshirildi. 0,250 ml eritma 0,250 ml Folin–Ciocalteu reaktivi va 0,50 ml 10% natriy karbonat (Na_2CO_3) bilan aralashtirildi, so‘ng hajm distillangan suv bilan 5 ml ga yetkazildi. Aralashma xona haroratida qorong‘i joyda 30 daqiqa inkubatsiya qilindi. Shundan so‘ng reaksiya aralashmasining yutilish darajasi (absorbsiya) 725 nm to‘lqin uzunligida, blank eritmaga nisbatan o‘lchandi. Standart modda sifatida gall kislotasi qo‘llanildi va natijalar mg/ml ko‘rinishida ifodalandi.

Umumiy flavonoidlarni aniqlash. Umumiy flavonoidlar miqdori quyidagi usul asosida aniqlandi. Namuna (1 g) 10 ml 80% metanol bilan aralashtirilib, 2 soat davomida chayqatildi.

Olingan flavonoid ekstraktidan 0,4 ml olinib, 4 ml suvga qo‘shildi. So‘ngra 0,3 ml 5% natriy nitrit ($NaNO_2$) eritmasi qo‘shildi. 5 daqiqadan keyin 0,3 ml 10% alyuminiy xlorid ($AlCl_3$) qo‘shildi. 6 daqiqadan so‘ng 2 ml 1 M natriy gidroksid (NaOH) eritmasi qo‘shildi va umumiy hajm distillangan suv bilan 10 ml ga yetkazildi. Hosil bo‘lgan rang intensivligi 510 nm to‘lqin uzunligida, blank eritmaga nisbatan o‘lchandi. Standart modda sifatida katexin qo‘llanildi va natijalar mg/ml ko‘rinishida ifodalandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. AASE ning YuSSX profili 1-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, 1-jadval quyidagi asosiy birikmalarni aniqlagan: gall kislotasi (ushlanish vaqti — tR 11,39 min, pik 1), katexin (tR = 14,97 min, pik 2), xlorogen kislotasi (tR = 18,73 min, pik 3), kofe kislotasi (tR = 21,08 min, pik 4), ferul kislotasi (tR = 24,11 min, pik 5), epikatexin (tR = 29,37 min, pik 6), rutin (tR = 35,16 min, pik 7), kvertsitrin (tR = 39,85 min, pik 8), izokvertsitrin (tR = 42,07 min, pik 9), kvertsetin (tR = 44,81 min, pik 10) va kaempferol (tR = 49,73 min, pik 11).

ISSN 3030-3907



1-rasm: Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi orqali aniqlangan *Artemisia absinthium*ning suvli ekstrakti (AASE) tarkibidagi fenolik birikmalar va flavonoidlar profili. Gall kislotasi (pik 1), katexin (pik 2), xlorogen kislotasi (pik 3), kofe kislotasi (pik 4), ferul kislotasi (pik 5), epikatexin (pik 6), rutin (pik 7), kvertsitrin (pik 8), izokvertsitrin (pik 9), kvertsetin (pik 10) va kaempferol (pik 11).

1-jadval

***Artemisia absinthium* suvli ekstrakti (AASE) tarkibidagi fenolik birikmalar va flavonoidlarning Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi bo‘yicha tarkibi.**

Moddalar	AASE (mg/g)	%	LOD (µg/mL)	LOQ (µg/mL)
Gall kislotasi	36.17 ± 0.03a	3.61	0.018	0.059
Katexin	5.03 ± 0.01b	0.50	0.023	0.075
Xlorogen kislotasi	12.09 ± 0.01c	1.20	0.007	0.023
Kofe kislotasi	41.73 ± 0.02d	4.17	0.034	0.112
Ferul kislotasi	42.95 ± 0.03d	4.29	0.011	0.034
Epikatexin	15.20 ± 0.01e	1.52	0.015	0.049
Rutin	7.46 ± 0.02f	0.74	0.029	0.095
Kversitrin	20.07 ± 0.01g	2.00	0.042	0.138
Izokversitrin	18.92 ± 0.03h	1.89	0.031	0.102
Kversetin	30.11 ± 0.02i	3.01	0.008	0.029
Kaempferol	29.67 ± 0.01i	2.96	0.021	0.069

Natijalar uch marta o‘tkazilgan aniqlashlarning o‘rtacha qiymati ± standart xatolik (S.X.) ko‘rinishida ifodalangan.

LOD — aniqlash chegarasi (µg/ml),

LOQ — miqdoriy aniqlash chegarasi (µg/ml).

ISSN 3030-3907

Turli harflar bilan belgilangan o‘rtacha qiymatlar Tukey test bo‘yicha $p < 0,05$ darajada statistik jihatdan ishonchli farq qilishini bildiradi.**Umumiy fenol va flavonoidlar miqdori**. Asosiy konsentratsiyalangan polifenollar sifatida eng ko‘p miqdorda ferul kislotasi, undan keyin kofe kislotasi va gall kislotasi aniqlangan.

Flavonoidlar tarkibida esa AASE da eng yuqori miqdor kversetinga tegishli bo‘lib, undan keyin kaempferol qayd etilgan. Ushbu hamda boshqa fenol va flavonoid birikmalar hamda ularning konsentratsiyalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Artemisia absinthium suvli ekstrakti (AASE) tarkibidagi umumiy fenollar va flavonoidlarning fitokimyoviy tahlili.

Parametrlar	AASE
Umumiy fenolik miqdor (mg GAE/g ekstrakt)	0,5844
Umumiy flavonoidlar miqdori (mg kvertsetin/g ekstrakt)	0,6084

Natijalar quyidagi ko‘rinishda ifodalangan:
(mg GAE/g ekstrakt) - gall kislotasi ekvivalenti asosida umumiy fenollar miqdori
(mg quercetin/g ekstrakt) - kvertsetin ekvivalenti asosida flavonoidlar miqdori

Ushbu tahlillar Folin-Ciocalteu method va flavonoidlarni aniqlash usullari asosida amalga oshirilgan fitokimyoviy baholash natijalarini aks ettiradi.

Artemisia absinthium o‘simligi polifenollar va flavonoidlarga boy tur hisoblanadi [11]. A. absinthium ning ko‘plab biologik faolliklari aynan uning suvli ekstraktida uchraydigan kofe kislotasi, ferul kislotasi, gal kislota, kversetin va kaempferol kabi birikmalar bilan bog‘liq holda ilmiy adabiyotlarda tasvirlangan.

Araújo va boshq. [12] ma’lumotlariga ko‘ra, kofe kislotasi va uning hosilalari *Escherichia coli* va *Staphylococcus aureus* bakteriyalariga qarshi antimikrob faollik ko‘rsatadi. Pernin va boshq. [13] esa ferul kislotasi *Listeria monocytogenes* mikroblarga qarshi antimikrob ta’sirga ega ekanini ko‘rsatgan. Shuningdek, Borges va boshq. [14] gall kislotasining *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Staphylococcus aureus* va *Listeria monocytogenes* bakteriyalariga qarshi antibakterial ta’sirga ega ekanini aniqlagan. Boshqa tadqiqotlarda Pernin va boshq. [13] ferul kislotasining ham *Listeria monocytogenes* bakteriyasiga qarshi faolligini tasdiqlagan.

Artemisia absinthium tarkibida shuningdek flavonoidlar ham mavjud bo‘lib, ular orasida kversetin, rutin, izokversetin, kversetin-3-O-*D*-glukosid [15], kversetin-3-O-ramnoglukozid [16], izoramnetin-3-O-ramnoglyukozid, izoramnetin-3-glukozid hamda fenol kislotalar – xlorogen, siringik, kumarik, salitsil va vanil kislotalar bor.

ISSN 3030-3907

Ushbu birikmalar biologik tizimlarda oksidlovchi zararlarning oldini olish mexanizmlarida muhim rol o‘ynashi ehtimol qilinadi [17]. Bir nechta tadqiqotlar *Artemisia absinthium*ning kuchli antioksidant, erkin radikallarni yo‘q qiluvchi (free radical scavenging) hamda yallig‘lanishga qarshi faollikka ega ekanini ko‘rsatgan. AA tarkibida umumiy fenol birikmalar va umumiy flavonoidlar kabi fitokimyoviy moddalarning yuqori miqdorda mavjudligi bu birikmalar uning antioksidant faolligiga hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

Flavonollar, sinnamik kislotalar, kumarinlar, shuningdek kofe kislotasi va xlorogen kislota kabi fenolik moddalarning antioksidant xususiyatlarga ega ekani ma’lum bo‘lib, ular hujayralar va organlarni oksidlovchi yemirilishdan himoya qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin [18].

Suvli ekstrakt tarkibida alohida yoki aralash holda uchraydigan barcha biologik faol komponentlar uning dorivor xususiyatlarini shakllantirishda ishtirok etishi mumkin. Shu sababli, ushbu ishda amalga oshirilgan Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi asosidagi fitokimyoviy tahlil *Artemisia absinthium*ning xalq tabobatida qo‘llanilishiga asos bo‘ladigan mumkin bo‘lgan ta’sir mexanizmlaridan birini tushuntirishga va aniqlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, *Artemisia absinthium*ning suvli ekstrakti (AASE) yuqori miqdorda polifenollar va flavonoidlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi. Umuman olganda, ushbu birikmalar zamburug‘larga qarshi, antimikrob va antioksidant kabi ko‘plab biologik faolliklarga ega ekanligi ko‘rsatildi.

Aholi tomonidan dorivor maqsadlarda iste’mol qilinadigan AA ekstraktining turli biologik xususiyatlari, ehtimol, o‘simlik tarkibida mavjud bo‘lgan turli komponentlarning qo‘shma (additiv) yoki o‘zaro kuchaytiruvchi (sinergik) ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki suvli ekstrakt tarkibidagi ushbu moddalarning har biri ilmiy adabiyotlarda allaqachon biologik faollikka ega ekani qayd etilgan.

Shunga qaramay, AASE ning xususiyatlarini yanada chuqurroq yoritish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. JARIĆ, Snežana et al. An ethnobotanical study on the usage of wild medicinal herbs from Kopaonik Mountain (Central Serbia). Journal of ethnopharmacology, v. 111, n. 1, p. 160-175, 2007. https://doi.org/10.1016/j.jep.2006.11.007

2. Estomba, D., ladio, A., Lozada, M. Medicinal wild plant knowledge and gathering patterns in a Mapuche community from North-western Patagonia. Journal of Ethnopharmacology, v. 103, n. 1, p. 109-119, 2006. https://doi.org/10.1016/j.jep.2005.07.015

ISSN 3030-3907

3. Chiasson, H., Bélanger, A., Bostanian, N., Vincent, C., Poliquin, A. (2001). Acaricidal properties of Artemisia absinthium and Tanacetum vulgare (Asteraceae) essential oils obtained by three methods of extraction. Journal of economic entomology, v. 94(1), p. 167-171.,2001. https://doi.org/10.1603/0022-0493-94.1.167

4. Abad, María José et al. The Artemisia L. genus: a review of bioactive essential oils. Molecules, v. 17, n. 3, p. 2542-2566, 2012. https://doi.org/10.3390/molecules17032542

5. Bhat, Rahil Razzak et al. Chemical composition and biological uses of Artemisia absinthium (wormwood). Plant and Human Health, v. 3, p. 37-63., 2019. https://doi.org/10.1007/978-3-030-04408-4_3

6. WEI, Xianxian et al. The Extracts of Artemisia absinthium L. suppress the growth of hepatocellular carcinoma cells through induction of apoptosis via endoplasmic reticulum stress and mitochondrial-dependent pathway. Molecules, v. 24, n. 5, p. 913, 2019. https://doi.org/10.3390/molecules24050913

7. Mahmoudi, M., Ebrahimzadeh, M. A., Ansaroudi, F., Nabavi, S. F., Nabavi, S. M. (2009). Antidepressant and antioxidant activities of Artemisia absinthium L. at flowering stage. African journal of Biotechnology, v. 8(24)., 2009. DOI: 10.4314/ajb.v8i24.68818

8. Singh, Rajeev; VERMA, Pawan Kumar; SINGH, Gagandeep. Total phenolic, flavonoids and tannin contents in different extracts of Artemisia absinthium. Journal of Complementary Medicine Research, v. 1, n. 2, p. 101-104, 2012. https://doi.org/10.5455/jice.20120525014326

9. Ahmad, F.; Khan, R. A.; Rasheed, S. Study of analgesic and anti-inflammatory activity from plant extracts of Lactuca scariola and Artemisia absinthium. Journal of Islamic Academy of Sciences, v. 5, n. 2, p. 111-114, 1992.

10. Erel, Ş. B., Reznicek, G., Şenol, S. G., Yavaşoğlu, N. Ü. K., Konyalioğlu, S., & Zeybek, A. U. (2012). Antimicrobial and antioxidant properties of Artemisia L. species from western Anatolia. Turkish Journal of Biology, v. 36(1), p. 75-84., 2012.

11. Msaada, K., Salem, N., Bachrouch, O., Bousselmi, S., Tammar, S., Alfaify, A., Al Sane, K., Ben Ammar, W., Aziz, S., Haj Brahim, A., Hammami, M., SelmI, S., Limam, F., Marzouk, B., 2015. Chemical Composition and Antioxidant and Antimicrobial Activities of Wormwood (Artemisia absinthium L.) Essential Oils and Phenolics. Journal of Chemistry. p. 1–12., 2015 https://doi.org/10.1155/2015/804658

12. Araújo, Marianna O. et al. Synthesis, antibacterial evaluation, and QSAR of caffeic acid derivatives. Journal of Chemistry, v. 2019, 2019. https://doi.org/10.1155/2019/3408315

13. Msaada, K., Salem, N., Bachrouch, O., Bousselmi, S., Tammar, S., Alfaify, A., Al Sane, K., Ben Ammar, W., Aziz, S., Haj Brahim, A., Hammami, M., Selmi, S., Limam, F., Marzouk, B., 2015. Chemical Composition and Antioxidant and Antimicrobial Activities of Wormwood (Artemisia absinthium L.) Essential Oils and Phenolics. Journal of Chemistry. p. 1–12., 2015 https://doi.org/10.1155/2015/804658

14. Borges, A., Ferreira, C., Saavedra, M.J., Simões, M., 2013. Antibacterial Activity and Mode of Action of Ferulic and Gallic Acids Against Pathogenic Bacteria. Microbial Drug Resistance v. 19, p. 256–265., 2013. https://doi.org/10.1089/mdr.2012.0244

15. Olennikov, Daniil N. et al. Bioactive phenolics of the genus Artemisia (Asteraceae): HPLC-DAD-ESI-TQ-MS/MS profile of the Siberian species and their inhibitory potential against α-amylase and α-glucosidase. Frontiers in pharmacology, v. 9, p. 756, 2018. https://doi.org/10.3389/fphar.2018.00756

16. Pernin, A., Bosc, V., Maillard, M.N., Dubois-Brissonnet, F., 2019. Ferulic acid and eugenol have different abilities to maintain their inhibitory activity against Listeria monocytogenes in emulsified systems. Frontiers in Microbiology v. 10, p. 1–10., 2019. https://doi.org/10.3389/fmicb.2019.00137

17. KORDALI, Saban et al. Screening of chemical composition and antifungal and antioxidant activities of the essential oils from three Turkish Artemisia species. Journal of agricultural and food chemistry, v. 53, n. 5, p. 1408-1416, 2005. https://doi.org/10.1021/jf048429n

18. Wiseman, Sheila; Mulder, Theo; Rietveld, Anton. Tea flavonoids: bioavailability in vivo and effects on cell signaling pathways in vitro. Antioxidants and Redox Signaling, v. 3, n. 6, p. 1009-1021, 2001. https://doi.org/10.1089/152308601317203549

TUPROQQA ISHLOV BERUVCHI MASHINALAR ISHCHI ORGANLARI MATERIALINING TOBLASH PARAMETRLARINI ASOSLASH

Mo‘minov Saydabror Nabijon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Texnologik mashinalar va mehnat muhofazasi kafedrasi tayanch doktoranti (phd)
Maxmudov Iqrorxon Rustamxon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Doktorant (DSc)

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы выбора материалов для рабочих органов почвообрабатывающих машин и научное обоснование режимов их закалки. Установлено, что рабочие органы, используемые в сельскохозяйственной технике – плугах, лемехах чизельных культиваторов, дисковых и разрыхлительных машинах и др. – имеют высокую скорость износа из-за работы в высокоабразивной среде. По результатам научных исследований, абразивный износ наблюдается на поверхности деталей при взаимодействии с почвой, и этот процесс напрямую связан с твердостью, структурной стойкостью и режимами термической обработки материала. Рассмотрены физико-механические свойства углеродистых и легированных сталей как конструкционных материалов, их твердость (ВРК), прочность и ударная вязкость. При этом на основе научных источников обоснованы оптимальные температурные режимы процессов закалки и отпуска. Результаты анализа показывают, что эффективность работы рабочих органов, используемых в почвообрабатывающих агрегатах, в значительной степени определяется правильным выбором материалов и технологии термической обработки.

Ключевые слова: почвообработка, абразивный износ, легированная сталь, углеродистая сталь, режим закалки, отпуск, твердость, микроструктура

Annotation. This article analyzes the issues of selecting materials for the working bodies of soil-working machines and the scientific justification of their hardening regimes. It has been established that the working bodies used in agricultural machinery - plows, chisel cultivator share, discs and softeners, etc. - have a high wear rate due to their operation in a highly abrasive environment. According to the results of scientific research, abrasive wear is observed on the surface of the parts during interaction with the soil, and this process is directly related to the hardness, structural stability and heat treatment regimes of the material. The physical and mechanical properties of carbon and alloy steels as structural materials, their hardness (HRC), strength and impact resistance are considered. At the same time, the optimal temperature regimes of the hardening and tempering processes are justified based on scientific sources. The results of the analysis show

ISSN 3030-3907

that the operational efficiency of the working bodies used in soil-tillage units is largely determined by the correct selection of materials and thermal treatment technology.

Keywords: soil cultivation, abrasive wear, alloy steel, carbon steel, hardening regime, tempering, hardness, microstructure

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlari uchun material tanlash va ularni toblash rejimlarini ilmiy asoslash masalalari tahlil qilinadi. Qishloq xo‘jaligi texnikasida qo‘llaniladigan ishchi organlar — plug, chizel kultivator lemexi, disklar va yumshatkichlar va boshqalar yuqori abraziv muhitda ishlashi sababli ularning yeyilish tezligi yuqori bo‘lishi aniqlangan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, tuproq bilan o‘zaro ta’sir jarayonida detallar sirtida abraziv yeyilish kuzatiladi hamda bu jarayon materialning qattiqligi, struktura barqarorligi va termik ishlov berish rejimlariga bevosita bog‘liqdir. Konstruktiv materiallar sifatida uglerodli va legirlangan po‘latlarning fizik-mexanik xossalari, ularning qattiqlik (HRC), mustahkamlik va zarbaga chidamlilik ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, toblash va bo‘shatish jarayonlarining optimal harorat rejimlari ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tuproqqa ishlov beruvchi agregatlarda qo‘llaniladigan ishchi organlarning ekspluatatsion samaradorligi ko‘p jihatdan material va termik ishlov berish texnologiyasining to‘g‘ri tanlanishi bilan aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: tuproqqa ishlov berish, abraziv yeyilish, legirlangan po‘lat, uglerodli po‘lat, toblash rejimi, bo‘shatish, qattiqlik, mikrostruktura

KIRISH.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tuproqqa ishlov berish jarayonlari agrotexnik tadbirlarning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi bevosita tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlari — plug lemexi, disk, chizel kultivator lemexi va yumshatkichlarning texnik holati hamda ekspluatatsion xususiyatlariga bog‘liqdir. Amaliy kuzatuvlar va ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur detallar yuqori abraziv muhitda ishlashi sababli ularning yeyilish tezligi boshqa mashina elementlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Natijada, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari ortadi va mashinalarning umumiy samaradorligi pasayadi [1, 2].

Tuproq bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan yeyilish mexanizmlari asosan abraziv, zarbaviy-mexanik hamda qisman korroziyaviy omillar bilan izohlanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mashinalari ishchi organlarining umumiy ishdan chiqish holatlarining 60–70 % i aynan abraziv yeyilish hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa detallar materiali, ularning

ISSN 3030-3907

mikrostrukturasi hamda issiqlik bilan ishlov berish rejimlarini optimallashtirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qarashni talab etadi [3, 4].

Materialshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun qo‘llaniladigan materiallar yuqori qattiqlik, zarbaga chidamlilik va yeyilishga qarshilik kabi kompleks xossalarga ega bo‘lishi lozim. Shu bois, amaliyotda asosan o‘rta va yuqori uglerodli po‘latlar, shuningdek, legirlangan po‘latlar keng qo‘llaniladi. Biroq, faqat material tanlashning o‘zi yetarli emas, balki ularga beriladigan issiqlik ishlovi — xususan, toblash va bo‘shatish rejimlari — detallar xizmat muddatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan issiqlik ishlovi natijasida materialning qattiqligi 1,2–1,5 barobarga oshishi, yeyilishga chidamliligi esa sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin [5, 6].

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun materiallar tanlash va ularni mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, ularning aksariyati alohida omillarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, kompleks yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Ayniqsa, tuproq sharoitining xilma-xilligi, yuklanish rejimlarining o‘zgaruvchanligi hamda zamonaviy texnologik ishlov berish usullarining jadal rivojlanishi ushbu muammoni yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.


Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi tuproqqa ishlov beruvchi detallar materiali va ularni toblash rejimlarini ilmiy asoslash yuzasidan mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, samarali material va termik ishlov berish parametrlarini aniqlash hamda ularning ekspluatatsion xususiyatlarga ta’sirini baholashdan iboratdir. Mazkur tahlil natijalari qishloq xo‘jaligi texnikalarining ishonchliligini oshirish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar ishchi organlari detallari yeyilishi va ularning xizmat muddatini oshirish masalalari mashinasozlik va materialshunoslik yo‘nalishlarida keng o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, detallar yeyilishining asosiy turi abraziv yeyilish bo‘lib, u tuproq tarkibidagi qattiq zarrachalar — kvarts, dala shpati va boshqa mineral komponentlar bilan bog‘liq.

larga ko‘ra, tuproq tarkibida kremniy oksidi (SiO_2) miqdori 60–80 % gacha yetishi mumkin bo‘lib, bu esa ishchi organlar sirtining intensiv yemirilishiga sabab bo‘ladi [3, 4].

ISSN 3030-3907



1-rasm

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda (qishloq xo‘jaligi mashinalari bo‘yicha ilmiy markazlar, materialshunoslik institutlari hamda texnika universitetlari ishlari) tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun asosan o‘rta uglerodli (0,45–0,65 % C) va legirlangan po‘latlar (masalan, xrom, marganes va bor bilan legirlangan po‘latlar) samarali ekanligi aniqlangan. Ushbu materiallar yuqori qattiqlik va yetarli darajadagi plastiklikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda sirtni mustahkamlashning zamonaviy usullari — kimyoviy-termik ishlov berish (sementatsiya, nitridlash), lazerli qotirish va plazmali purkash texnologiyalarining samaradorligi ham qayd etilgan [7, 8].

Tuproqqa ishlov beradigan detallar uchun materiallar va toblash rejimlarining samaradorligi bo'yicha adabiyotlar tahlili natijalari




DIAGRAMMA ASOSIDAGI MA'LUMOTLAR

№	Material turi yoki ishlov berish usuli	Qattiqlik, HRC	Plastiklik, δ, %	Yeyilishga chidamlilik (nisbiy), %	Yeyilishga massaning yeyilish, g/m²
1	O'rta uglerodli po'lat (0,45–0,65%C) (QT po'lat 45)	32	18	55	120
2	Xromli po'lat (40X)	45	14	70	80
3	Xrom-marganesli po'lat (20XMn)	42	16	68	90
4	Xrom-borli po'lat (20NGB)	52	12	78	60
5	Sementatsiyalangan po'lat (20X) (sementatsiya)	64	11	88	40
6	Nitridlangan po'lat (38X2MIOA) (nitridlash)	64	9	92	30
7	Lazerli qutirilgan po'lat (45) (lazerli ishlov)	68	10	95	20

DIAGRAMMA TAVSIFI

Ushbu diagrammada tuprooga ishlov beradigan detallar ochun turli materiallar va sirtni mustakkamlash usallarining asosiy sossalari soiishtirtigan. Ustunli- chicgii kombinatsiyalangan grafikda qattiqlik (HRC), plastiklik (8, %), asinishga chidamlilik (nisbiy, %) ko'rsatkichlari ustunlar bilan, ishqalanishdan massaning yo'qulishi (g/m²) esa chiciq ko'rinishida Hodalangan. Ko'rsatkiehlar adahiyotlarda kehiriigan tajriba natijalari va ihniy maqpialardagi o'stacha qiymallar asosida tizimlashtirligan.

DIAGRAMMA IZOHI

- Legislangan po'lattar (xromli, xrom-marganesli, xrom-borli) oddiy o'rta uglerodli po'latga nisbatan yoqori qattiqiik va yeyilthgs chidamlilikni ta minlaydi.
- Xrom-borli po'lat (30XGB) optinal muvovanatga ega: qattiqligi yoqori (53 HRC) bo'hb, plastiklik darajasi ham yetarli (12 %). asinishga chidamliligi 78 % ga long.
- Sementatsiya va nitridlash kabi kimyoviy-termik ishlov berish usallari materialning sirtini sezilarli darajada mustakkamlaydi: qattiqlik 60–64 HRC gacha oshadi, massaning yo'qulishi cas 30–40 g/m² gacha kamayadi.
- Lazerli qotirish ang yuqori ko'rsatkichlarni beradi: qattiqlik 68 HRC, syinishga chidamlilik 95 % va massaning yo'qulishi algi 20 g/m².
- Umoman olganda, sitrat zamonaviy usallar bilan mustakkamiash, ekspluatatsion resarani 1,5–2,5 baravar oatlirish mibonini beradi.
- Amaliyot achan kimyoviy-termik ishlov yoki lazerli qutirish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq.

2-rasm

Ilmiy adabiyotlarda termik ishlov berish rejimlarining detallar xossalariga ta’siri keng yoritilgan. Xususan, toblash jarayonida austenitlash haroratining (800–950 °C) to‘g‘ri tanlanishi va sovitish muhitining (suv, moy, tuz eritmalari)

ISSN 3030-3907

optimallashtirilishi natijasida martensit struktura hosil bo‘lishi ta’minlanadi. Bu esa materialning qattiqligini 50–65 HRC gacha oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bo‘shatish jarayoni ichki kuchlanishlarni kamaytirish va zarbaga chidamlilikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tahlillar natijalariga ko‘ra, past haroratli bo‘shatish (200–300 °C) yuqori qattiqlikni saqlab qolsa, o‘rta va yuqori haroratli bo‘shatish (400–600 °C) plastiklik va zarbaga chidamlilikni oshiradi [9, 6].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, kompleks yondashuv ya’ni material tarkibini optimallashtirish, issiqlik ishlov berish rejimlarini to‘g‘ri tanlash va sirtni qo‘shimcha mustahkamlash texnologiyalarini qo‘llash — detallar yeyilishga chidamliligini 1,5–2,5 barobarga oshirish imkonini beradi. Biroq mavjud tadqiqotlarda tuproq sharoitlarining xilma-xilligi va real ekspluatatsiya omillarini hisobga olgan holda tizimli tahlil yetarli darajada yoritilmagan.

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda tizimli va kompleks ilmiy yondashuv asosida adabiyotlar tahlili hamda nazariy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ilmiy manbalarni tanlash va tahlil qilish. Tahlillar doirasida mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, texnik me’yoriy hujjatlar hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va materialshunoslik sohasidagi ilmiy ishlanmalar o‘rganildi. Manbalar tanlashda ularning dolzarbligi, ilmiy ishonchliligi va amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi.

2. Yeyilish jarayonlarini tahlil qilish. Tuproq bilan o‘zaro ta’sirda yuzaga keladigan abraziv va mexanik yeyilish mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bunda detallar yuzasidagi mikroo‘zgarishlar, kontakt kuchlanishlari va ishqalanish jarayonlari materialshunoslik qonuniyatlari asosida o‘rganildi.

3. Materiallar xossalarini solishtirma baholash. Turli markadagi uglerodli va legirlangan po‘latlarning fizik-mexanik xossalari (qattiqlik, mustahkamlik, zarbaga chidamlilik) solishtirma tahlil qilindi. Ushbu baholash asosida tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun optimal materiallar aniqlashga harakat qilindi.

4. Issiqlik ishlov berish rejimlarini asoslash. Toblash va bo‘shatish jarayonlarining harorat va vaqt parametrlarining material strukturasiga ta’siri nazariy jihatdan asoslab berildi. Optimal issiqlik ishlovi rejimlari tanlashda strukturaviy o‘zgarishlar (austenit, martensit, trostit va sorbit fazalari) hisobga olindi.

ISSN 3030-3907

5. Tizimli yondashuv asosida umumlashtirish. Olingan natijalar asosida tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun material tanlash va issiqlik ishlovi rejimlarini kompleks optimallashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan birga, olingan natijalarning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

NATIJALAR.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirishlar asosida tuproqqa ishlov beruvchi detallar materiali hamda ularni issiqlik bilan ishlov berish rejimlarining ekspluatatsion xossalarga ta’siri bo‘yicha quyidagi ilmiy natijalarga erishildi.

Birinchidan, tuproq bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan yeyilish mexanizmlarining ustuvor turi abraziv yeyilish ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tuproq tarkibidagi qattiq mineral zarrachalar (ayniqsa, kvarts asosli komponentlar) detallar yuzasida mikroqirqilish va mikroyo‘nilish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Natijada, ishchi organlarning ishchi yuzasi qisqa muddat ichida deformatsiyalanadi va funksional shaklini yo‘qotadi. Hisob-kitob va tajriba natijalari asosida aniqlanishicha, ishchi organlarning umumiy yeyilishining 65–75 % qismi aynan abraziv ta’sir natijasida yuzaga keladi [3, 4].

Ikkinchidan, material tanlashning detallar xizmat muddatiga bevosita ta’siri aniqlashtirildi. O‘rta uglerodli po‘latlar (0,45–0,60 % C) bilan solishtirganda, legirlangan po‘latlardan foydalanish (xususan, xrom, marganes va bor bilan legirlangan po‘latlar) detallar yeyilishga chidamliligini o‘rtacha 1,3–1,8 barobarga oshirishi mumkinligi asoslab berildi. Bunda materialning qattiqligi bilan bir qatorda uning zarbaga chidamliligi ham muhim omil ekanligi aniqlandi, chunki haddan tashqari qattiq, ammo mo‘rt struktura zarbaviy yuklanishlarda yorilish xavfini oshiradi [5].

Uchinchidan, issiqlik bilan ishlov berish rejimlarining optimallashtirilishi detallar ishlash samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi isbotlandi. Xususan, 820–900 °C harorat oralig‘ida amalga oshirilgan toblash jarayoni natijasida materialda martensitik struktura shakllanishi va qattiqlikning 52–60 HRC diapazoniga yetishi ta’minlandi. Keyingi bosqichda 200–300 °C da o‘tkazilgan past haroratli bo‘shatish ichki kuchlanishlarni kamaytirgan holda yuqori qattiqlikni saqlab qolishga imkon berdi. Shu bilan birga, o‘rta haroratli bo‘shatish (400–500 °C) zarbaga chidamlilikni 20–30 % ga oshirishi aniqlandi, bu esa og‘ir sharoitlarda ishlovchi detallar uchun muhim ahamiyatga ega [6, 11].

To‘rtinchidan, kompleks mustahkamlash yondashuvining samaradorligi asoslab berildi. Ya’ni, optimal kimyoviy tarkibga ega materialni tanlash, to‘g‘ri issiqlik ishlovi rejimini qo‘llash va qo‘shimcha sirt mustahkamlash usullarini

ISSN 3030-3907

(masalan, sementatsiya yoki induksion qotirish) birgalikda qo‘llash natijasida detallar xizmat muddati 1,5–2,5 barobarga oshishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [5, 12].

Beshinchidan, ekspluatatsion sharoitlarning ta’siri baholandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tuproq namligi, zichligi va granulometrik tarkibi yeyilish tezligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Quruq va qumli tuproqlarda yeyilish intensivligi nam va loyqa tuproqlarga nisbatan 1,2–1,6 barobarga yuqori bo‘lishi kuzatildi. Shu bois, material va issiqlik ishlovi rejimlarini tanlashda konkret agrotexnik sharoitlarni hisobga olish zarurligi asoslandi [3, 13].

Umuman olganda, olingan natijalar tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun material tanlash va issiqlik ishlovi rejimlarini ilmiy asoslash orqali ularning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish hamda qishloq xo‘jaligi texnikasining umumiy samaradorligini yaxshilash mumkinligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqat yuqori qattiqlikka erishish detallar samaradorligini to‘liq ta’minlamaydi. Aksincha, haddan tashqari qattiqlashtirilgan materiallarda mo‘rtlikning ortishi kuzatiladi, bu esa zarbaviy yuklanishlar ostida mikro yoriqlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, optimal mexanik xossalar majmuasini — ya’ni qattiqlik va zarbaga chidamlilikning muvozanatini ta’minlash zarur. Bu holat materialshunoslikda “strukturaviy muvozanat” tamoyili bilan izohlanadi va tahlil natijalari ushbu nazariyani amaliy jihatdan yana bir bor tasdiqlaydi [10, 11].

Issiqlik bilan ishlov berish rejimlari bo‘yicha olingan natijalar ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, toblash haroratining optimal diapazonda tanlanishi va keyingi bo‘shatish jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi materialda kerakli mikrostrukturani shakllantirish imkonini beradi. Muhokama natijalariga ko‘ra, past haroratli bo‘shatish yuqori qattiqlikni saqlab qolgan holda yeyilishga chidamlilikni oshiradi, ammo ayrim og‘ir ish sharoitlarida bu yetarli emas. Shu bois, o‘rta haroratli bo‘shatish orqali zarbaga chidamlilikni oshirish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Bu esa issiqlik ishlovi rejimlarini tanlashda universal yondashuv mavjud emasligini, balki ekspluatatsiya sharoitiga mos differensial yondashuv zarurligini ko‘rsatadi [12, 6].

Bundan tashqari, kompleks mustahkamlash yondashuvining ustunligi muhokama jarayonida alohida ta’kidlandi. Ya’ni, faqat material yoki faqat issiqlik ishlovini optimallashtirish emas, balki ularning kombinatsiyasi eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Masalan, legirlangan po‘latlarni optimal toblash rejimlari bilan birgalikda qo‘llash, so‘ngra sirtni qo‘shimcha mustahkamlash (sementatsiya, nitridlash yoki induksion qotirish) detallar yuzasida yuqori

ISSN 3030-3907

qattiqlik va ichki qatlamlarda yetarli plastiklikni ta’minlaydi. Bu esa yeyilish va zarbaviy shikastlanishlarga qarshi kompleks himoya yaratadi [12, 5].

Shuningdek, tadqiqot natijalari tuproq sharoitlarining ta’siri masalasini ham kengroq yoritishga imkon berdi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ilmiy ishlarda laboratoriya sharoitida olingan natijalar real dala sharoitlariga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Chunki tuproqning namligi, zichligi va granulometrik tarkibi doimiy o‘zgarib turadi. Shu sababli, kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda real ekspluatatsion sharoitlarni modellashtirish va dala sinovlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [2, 3].

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, ish asosan nazariy tahlil va mavjud adabiyotlar asosida olib borilgan bo‘lib, eksperimental sinovlar bilan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmagan. Shu bois, kelajakdagi izlanishlarda aniq material markalari va issiqlik ishlovi rejimlari bo‘yicha tajriba sinovlarini o‘tkazish, mikrostrukturaviy tahlillarni chuqurlashtirish hamda yeyilish jarayonlarini raqamli modellashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, tuproqqa ishlov beruvchi detallar samaradorligini oshirish faqat bitta omilga emas, balki material tanlovi, issiqlik ishlovi rejimlari va ekspluatatsion sharoitlarning kompleks uyg‘unligiga bog‘liq. Bu esa mazkur yo‘nalishda tizimli va integratsiyalashgan ilmiy yondashuvni qo‘llash zarurligini belgilaydi.

XULOSA.

Mazkur tadqiqotda tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlari detallari uchun material tanlash va ularni toblash rejimlarini ilmiy asoslash bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirishlar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tuproqqa ishlov beruvchi ishchi organlar ekspluatatsiyasi jarayonida asosiy yemirilish turi sifatida abraziv yeyilish ustunlik qilishi aniqlanadi. Ushbu jarayon tuproq tarkibidagi qattiq mineral zarrachalarning mexanik ta’siri natijasida yuzaga kelib, detallar xizmat muddatining sezilarli qisqarishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, material tanlash detallar ekspluatatsion ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘rta uglerodli va legirlangan po‘latlar yuqori qattiqlik va zarbaga chidamlilikni ta’minlashi sababli tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun eng maqbul materiallar sifatida baholanadi. Legirlovchi elementlar (Cr, Mn, B) materialning yeyilishga chidamliligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Uchinchidan, issiqlik bilan ishlov berish rejimlari detallar mikrostrukturasi va mexanik xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Optimal toblash (800–900 °C) va bo‘shatish (200–500 °C) jarayonlari natijasida materialda zarur martensit yoki

ISSN 3030-3907

sorbit strukturalar hosil bo‘lib, qattiqlik va mustahkamlikning muvozanati ta’minlanadi. Bu esa yeyilishga chidamlilikni sezilarli darajada oshiradi.

To‘rtinchidan, kompleks yondashuv ya’ni material tanlash, issiqlik ishlovi va sirtni qo‘shimcha mustahkamlash texnologiyalarini birgalikda qo‘llash detallar xizmat muddatini 1,5–2,5 barobarga oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, olingan natijalar tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar ishchi organlarining ekspluatatsion samaradorligini oshirishda materialshunoslik va termik ishlov berish texnologiyalarining o‘rni hal qiluvchi ekanligini ko‘rsatadi.

TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tuproqqa ishlov beruvchi detallar uchun o‘rta uglerodli va legirlangan po‘latlarni tanlashda ularning kimyoviy tarkibi bilan bir qatorda ekspluatatsion sharoitlarni ham hisobga olish tavsiya etiladi.

2. Detallarni toblash jarayonida 820–900 °C harorat oralig‘ini saqlash va sovitish muhitini (moy yoki tuz eritmalari) ekspluatatsion talabga mos ravishda tanlash maqsadga muvofiqdir.

3. Bo‘shatish jarayonini differensial tarzda tashkil etish, ya’ni ish sharoitiga qarab past yoki o‘rta haroratli bo‘shatish rejimlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

4. Ishchi organlar yuzasida qo‘shimcha sirt mustahkamlash texnologiyalarini (sementatsiya, nitridlash) joriy etish orqali yeyilishga chidamlilikni oshirish lozim.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda laboratoriya natijalarini real dala sharoitlarida sinovdan o‘tkazish, shuningdek, raqamli modellashtirish va mikrostrukturaviy tahlillarni kengaytirish tavsiya etiladi.

6. Qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarishida resurs tejovchi va uzoq xizmat muddatiga ega bo‘lgan material-texnologik yechimlarni joriy etish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

Mazkur takliflar amaliyotga joriy etilganda qishloq xo‘jaligi mashinalarining ishonchliligi oshishi, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari kamayishi hamda umumiy ekspluatatsion samaradorlik sezilarli darajada yaxshilanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusupov A.A., Rasulov M.M. Qishloq xo‘jaligi mashinalari va ularning ishchi organlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 285 b.
2. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi ilmiy-tadqiqot instituti. Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar. — Toshkent, 2021. — 96 b.

ISSN 3030-3907

3. Karimova D.E. Qishloq xo‘jaligi texnikalarida abraziv yeyilish muammosi // *Agroilmiy axborotnoma*. — 2022— №4. — B. 58–64.
4. Mirzaev N.N., Qodirov J.J. Mashina detallari yeyilishi va ularni kamaytirish usullari // *Texnika ilmiy jurnali*. — 2021. — №3. — B. 45–52.
5. Axmedov B.B. Materiallarning yeyilishga chidamliligi va mustahkamlash usullari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019. — 240 b.
6. Xodjayev S.R. Issiqlik bilan ishlov berish texnologiyasi. — Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteti nashriyoti, 2017. — 198 b.
7. GOST 1050–2013. Uglerodli konstruksion sifatli po‘latlar. Texnik shartlar. — Moskva: Standartinform, 2013. — 28 b.
8. GOST 5632–2014. Korrozion-bardosh va issiqlikka chidamli po‘latlar va qotishmalar. — Moskva: Standartinform, 2014. — 35 b.
9. GOST 9013–59. Metallar Brinell usulida qattiqligini aniqlash. — Moskva: Standartlar nashriyoti, 2010. — 18 b.
10. Sobirov A.K. Materiallar qarshiligi va mexanik xossalari. — Toshkent: Fan, 2016. — 276 b.
11. Usmonov F.F. Po‘latlarning termik ishlov berish jarayonlari va mikrostrukturasi // *Materialshunoslik va mashinasozlik muammolari*. — 2020. — №2. — B. 33–41.
12. Karimov Sh.Sh., To‘raqulov B.B. Mashina detallarini mustahkamlash texnologiyalari // *O‘zbekiston texnika jurnali*. — 2019. — №1. — B. 22–30.
13. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi ilmiy-tadqiqot instituti. Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar. — Toshkent, 2021. — 96 b.

ARRALI JIN KOLOSNIKLARINI ISH RESURSIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Ruziboyev Javoxir Shokirjon o'g'li
Andijon davlat texnika instituti "Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari" - ixtisosligi tayanch doktoranti
Rustamov Rahmatali Muradovich
Namangan davlat texnika universiteti "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrasi praffesori

Annotatsiya. Ushbu ishda arrali jin mashinasining kolosniklari ish resursiga salbiy ta'sir etuvchi omillar umumiy tahlil qilindi. Jinlash jarayonida chigitli paxtani tolaga ajratish mexanik kuchlar va ishqalanish ta'sirida amalga oshadi, bu esa kolosnik va arra diski o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Natijada kolosnik ishchi yuzasida yeyilish jarayonlari yuzaga keladi, tirqishlar o'zgaradi hamda notekis yeyilish holatlari kuzatiladi. Arra diskining markaziy joylashuvi, siljishi va tebranishi kolosniklarning yeyilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda jarayon barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu omillar paxta tolasining sifatiga ham ta'sir etib, qo'shimcha chiqindilar miqdorini oshiradi.

Kalit so'zlar: Arrali jin, kolosnik, paxta tolasi, jinlash jarayoni, yeyilish, arra diski, ishqalanish kuchi, ishchi kamera, xomashyo valigi, mexanik ta'sir, tola sifati, texnologik jarayon.

